

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**JO‘RABEK YARASHEV
DILNAVOZ MUROTOVA**

MUSIQA O‘QITISH METODIKASI

(o‘quv qo‘llanma)

**“Durdon” nashriyoti
Buxoro - 2021**

UO'K 784.96(072)

85.314ya8

Y 86

Yarashev, J.

Musiqa o‘qitish metodikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / J. Yarashev, D. Murotova. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021.-72 b.

KBK 85.314ya8

O‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada umumta’lim maktablarining 1-7 sinflarida olib boriladigan musiqa madaniyati darsida o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, musiqa savodxonligi, musiqa tinglash hamda vokal-xor malakalarini rivojlantirishga o‘rgatish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Mas’ul muharrir:

Sanoqul Do‘stov - BuxDU musiqa ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Sobir Jumayev - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor.

Baxrom Madrimov - BuxDU musiqa ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi.

O‘quv qo‘llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 20-oktabrdagi 441-sonli buyrug’iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro‘yxatga olish raqami 441-22.

ISBN 978-9943-7844-3-7

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minalash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta’lim standart (DTS)ini joriy etilishi o‘rta umumta’lim maktab o‘qituvchilar zimmasiga qator muhim vazifalarni yuklamoqda. Shu bilan birga, umumta’lim maktablarda 11 yillik o‘rta ta’limning joriy etilishi ham o‘z navbatida, oliy ta’lim tizimida ta’lim oladigan bo‘lajak o‘qituvchilarini zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash, maktab o‘qituvchilarini esa malakasini oshirishga bo‘lgan yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Yurtimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar va o‘qituvchilarning yuqorida keltirilgan ehtiyojlari pedagogic ta’limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etadi. Xususan, musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining kasbiy saviya va malakasini oshirish mazmuni hamda shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

“Musiqa o‘qitish metodikasi” nomi bilan yuritiladigan o‘quv qo‘llanmaning maqsadi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini musiqaviy-nazariy va amaliy faoliyatini yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni ko‘zda tutadi:

- ✓ maktabda musiqa ta’limi va tarbiyasi mazmunini, tashkil qilish, turli shakl va metodlar haqida asosiy ma’lumotlar berish;
- ✓ maktabda amalga oshiriladigan musiqa ta’limi va tarbiyasi bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda umumlashtirish;
- ✓ musiqiy asarlarning badiiy-pedagogik tahviligi metodikasi asoslarini berish;
- ✓ o‘quvchilarini musiqa san’ati materiallari asosida o‘qitish va tarbiyalash masalalariga to‘g‘ri yondashuvni shaklantirish.

Oliy ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi fanini o‘rganishda pedagogika, psixologiya va boshqa predmetlardan olingan bilimlarga tayaniladi.

Musiqa o‘qitish metodikasi fanining asosiy yo‘nalish va uslublaridan biri - buyuk kompozitorlarning o‘ziga xos ijod yo‘li haqida bilimlar berish, o‘quvchilarning musiqiy didini tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyoqarashini shaklantirishga qaratilgan. Yakka tartibda kuylash, dirijorlik qilish, musiqa asbobida ijro etish faqatgina ijrochi – musiqachini tayyorlabgina qolmay, balki maktab o‘quvchilarini bilan ishlash jarayonida ularning ovozini tarbiyalash hamda rivojlantirish, maktabda sinfdan tashqari tashkil etilgan xor jamoalari bilan ishlash, musiqiy asarni ijrosini jonli ifodalash va o‘quvchilarning musiqiy ohangini eshitish qobiliyatini rivojlantirish, asarlarni nazariy tahlil qilish kabi malakalarini shaklantirishda, shuningdek, bo‘lajak mohir musiqa o‘qituvchisini ma’naviy-madaniy jihatdan tarbiyalashga ko‘maklashadi.

Umumta’lim maktablarida musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi, uning tuzilishini aniqlashga yordam beradi. Musiqa o‘qitish metodikasi musiqa o‘qituvchisining kasbiy musiqiy pedagogik tayyorligini yaqqol namoyon qiladi.

Faning nazariy qismida fanning asosiy mazmuni o‘zlashtirilib, amaliy mashg‘ulotlar mantiqiy davomi bo‘lib, bunda, nazariy qismida o‘zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlaydi, tavsiya etilgan asarlar o‘rganiladi va ijro etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi, mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantiradi.

I. NAZARIY QISM

I BOB. O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI

1.1. Maktabda musiqa o'qitishni tashkil etishning oziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, ta'limga demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan, musiqa fani bo'yicha ham o'qitish Kontseptsiyasi ishlab chiqildi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga mahorat, nafosat, badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'rtalim umumta'limga muktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limga ham davlat ta'limga standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarini, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda bugungi zamонавиy musiqiy faoliyatda o'z aksini topadi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'limgidan davlat ta'limga standartlari asosida yangi ta'limga mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlanishni ta'minlaydi.

O'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o'qituvchi o'zining ish faoliyatida sidqidildan tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o'tilishini ta'minlashi lozim. Zero, dars o'qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishni talab etadi. Samarasiz dars kamchiliklari uzoq vaqt o'qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi.

Musiqa madaniyati darsi – maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishning asosiy shaklidir. Musiqa to'garaklari, fakultativ mashg'ulotlar ham amaliyotda bo'lsa-da, dars hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki musiqa madaniyati darsi musiqiy faoliyatning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Bular jamoaviy qo'shiq kuylash, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, musiqiy savodxonlik, musiqa ijodkorligi, o'quvchilar cholg'u asboblarida chalish va hokazo.

Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi, chunki bunda barcha o'quvchilar qamrab olinadi. Musiqa darsining muxim xususiyatlaridan biri shundaki, u ko'proq ijodiy zavq, xissiy tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, o'quvchilarning aqliy va axloqiy estetik jixatdan kamol topishiga rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa darsi o'zining ajoyib xususiyatlari bilan boshqa fanlardan farq qiladi:

Birinchidan, musiqa darsi, musiqa tarixi, nazariysi, cholg'u ijrochiligiga doir turli namunalar, xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa asarlari tahlili, o'quvchilar cholg'u asboblarida ijro etish, ritmik harakatlar bajarish kabi elementlaridan iboratdir. Shuning uchun musiqa darsi aralash dars tipiga kiradi.

Ikkinchidan, musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot badiiy so'z bilan, tasviriy san'at ranglar va grafik chiziqlar bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida

ifodalanadi. Agar tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlarini ko'rish orqali, badiiy adabiyotni o'qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz.

Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Ijro etilayotgan musiqa tempi (sur'ati)ga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglanmasa, asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun klassik asarlarni biz qayta-qayta tinglash bilan uning yangi badiiy qirralarini his etamiz.

Musiqa vositasida ifodalanadigan his-tuyg'ularni so'z bilan ifodalash qiyin. "Qachonki so'z ojizlik qilsa, musiqa yordamga keladi".

Uchinchidan, musiqa o'quvchilarga faol emotSIONAL ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan o'quvchilar quvnoq, xursand bo'lib, hordiq chiqaradi.

Agar musiqa darsi oxirgi darsda qo'yilgan bo'lganda ham, o'quvchilar hordiq chiqarib, charchoqlari tarqaladi.

Bugungi kunda musiqa fanining yangi sohasi-funksional musiqa orqali musiqaning inson psixikasiga hamda fiziologiyasiga ta'sirini o'rganish ham buning boisidir.

Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi (tuzilmasi)ga ifoda vositasi (tili) va faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Demak, musiqa darsi o'quvchilarning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Musiqiy dars uchun alohida emotSIONAL muhit xarakterlidir. Bu tabiiy hol, albatta, chunki musiqa hissiyotlar tili. Musiqa to'lqinlantiradi, o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat uyg'otadi. Shakllangan badiiy taassurotlar o'qituvchi ta'sirida nafaqat ifodali ijro, balki "so'z" san'ati, yuz ifodasi, turli harakatlar yordamida yanada kuchaytiriladi. O'quvchilar diqqati yangrayotgan musiqaga jalg etilib, ularning hissiyoti rivojlantiriladi. O'quvchilarning musiqiy obrazlar olamiga kirishishlari, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi. Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars o'ziga xos va takrorlanmasligi bilan farq qiladi.

Ma'lumki, xoxlagan ishning yaxshi tashkil etilishi uning yarim yutug'i va bu to'liq ma'noda musiqa madaniyati darsiga ham taaluqlidir. Darsda maqsad va vazifalar, mazmun, tuzilma, vosita hamda metodlar puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Aks holda musiqa darsida hech qanday ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Darsga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahoratiga bog'liq. Bu esa, musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Darhaqiqat, musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asarni chuqur o'ganishni talab etadi. Asarni tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi hamda yosh xususiyatlarini hisobga oлgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Dars mazmuni talqinida turli xil musiqa asarlari bo'ladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish juda muhim. Chunki, bunda turli musiqiy faoliyatlarning birin-ketinligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsning musiqiy badiiy tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim hissiy holatni saqlab qolishi va ularning diqqatini jalg etish usullarini tadbiq etishi lozim. Shuningdek, dars ishlanmasini tuzishda o'quvchilarning jismoniy, aqliy va emotSIONAL holatlarni, sinfning o'ziga xosligini inobatga olish zarur. Masalan, boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olmaydi. Shu bois ularning faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning qiziqishlarini so'nishidan saqlaydi. Murakkab qo'shiqni, raqsni bir necha dars davomida o'rgatish samarali kechadi. Murakkab musiqiy -ritmik harakatlar o'rganilgandan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, jadvalda musiqa darsining o'rnini ham, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham hisobga olish lozim. Qaysi darsdan so'ng musiqa madaniyati mashg'uloti bo'lishi ham ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati mashg'ulotlari mehnat ta'limi va ayniqsa, jismoniy tarbiya darsidan keyin o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan boshlash

lozim. Har bir muayyan holatda o‘qituvchi sinfning o‘ziga xoslik jihatlarini, o‘quvchilarning u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini hisobga olishi juda muhimdir.

Shunday qilib, to‘liq shart-sharoitlar hisobga olingen xolda dars tuzilmasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun o‘qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa, har bir dars tuzilmasini takrorlanmas bo‘lishiga yordam beradi. Axir bir mashg‘ulotdan ikkinchisigacha bo‘lgan davrda boshqa fanlar o‘tilib, taassurotlar sayozlashishi mumkin. O‘qituvchi shularni egallab olish hafta davomida musiqa darsida yaxlit taassurotlar va qiziqishlarni saqlab qolishlariga erishmog‘i kerak.

Musiqa darsi mazmuni oldindan rejalashtirilsa, o‘ylab qo‘yilgan usul va vositalar o‘z ifodasni topib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik faoliyati doimo qiziqarli jarayon asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq ayrim kutilmagan holatlar bo‘lishi mumkin va muayyan har bir holatga maslahat berib bo‘lmaydi. Ba’zan ko‘zda tutilmagan holatlar yo‘l-yo‘lakay dars jarayonida ham amalga oshirishga to‘g‘ri kelib qoladi. O‘qituvchining kasb mahorati, o‘zini yo‘qotmasdan har bir holatga tegishli xulosa chiqarishni taqozo etadi. Natijada dars maqsadiga erishilib, belgilangan tuzilmada amalga oshiriladi.

Tajribali o‘qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero darsning turli elementlari, bosqichlari o‘zaro uygun va bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash (T-sxemasi), muammoli vaziyat, aqliy hujum, skarabey) asosida o‘qituvchi o‘quvchilarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va istagan natijalarga erishishlariga harakat qiladi.

Ma’lumki, zamonaviy musiqa darsining sifati o‘quvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning qiziqarli tuzilmasi, o‘quvchilarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash orqali hal etiladi. Ko‘pincha o‘qituvchining har bir o‘quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu esa bugunki kun zamonaviy o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biridir.

Musiqa fani o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan haftasida bir marotaba uchrashadi. Musiqa darsi sinf o‘quvchilari bilan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilmog‘i, ularning kuchli va zaif tomonlarini, qiziqishlarini to‘g‘ri anglab, ular dunyosiga kirishib har bir o‘quvchi imkoniyatlarini baholashi kerak bo‘ladi. Darsda bevosita muloqot o‘rnatishga harakat qilish, turli xil savollarga undovchi, so‘rovli nigoh, yuz ifodasida bayon etish vosita va usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Har bir musiqiy faoliyat o‘quvchilarga individual yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, ikki va uch ovozli asarlarni o‘rganishda o‘quvchilar musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishda, o‘quvchilar imkoniyatiga ko‘ra ijodiy xarakterdagи topshiriqlar berishda va h.k.larda buni yaqqol kuzatish mumkin. Differentsial topshiriqlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilar berilgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishi esa ularning musiqiy rivojlanishlarini faollashtiradi.

Zamonaviy musiqa darsini maxsus jihozlanmagan sharoitda amalga oshirish murakkab. Musiqa xonasining estetik jihozlanishi o‘quvchilarga zavq bag‘ishlab, darsda o‘ziga xos kayfiyat uyg‘otishi lozim. Darsda o‘qituvchi musiqa cholg‘u asboblari, texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi juda ham muhim. Ularning sifatliligidan, o‘z vaqtida tayyorlanganligidan va unumli tadbiq etilishidan darsning muvaffaqiyatli o‘tishi ta’minlanadi.

Bugungi kunda o‘qituvchi darslarda musiqa asarlarining turli ijrolarini (orquestr, ansambl ijrosida) sadolanishini texnik vosita yozuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu vositalar o‘quvchilarning har bir musiqa cholg‘ularining jaranglashini va ovozning ifodaliliginidirok etish tasavvurlarini kengaytiradi, Fonoxrestomatiya (elektron resurs) esa o‘qituvchida qo‘sish o‘rgatish jarayoni yanada qiziqarli, sermazmun o‘tishiga yordam beradi. O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarning qo‘sish ijrosini yozib olib, ularning o‘ziga qaytib eshitirishi va ijroga nisbatan o‘quvchilarning munosabati hamda ijroga baholarini berishni taklif etadi. Keyingi paytlarda musiqa darsida turli xil ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanilmoqda. Bular

illyustratsiya, turli tasviri manzaralar va boshqalar. Bu esa, darsda tasviri san'at, so'z san'ati namunalaridan ham unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Musiqa madaniyati darsida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanishi muhim. Nota yozuvlari vositasida ko'rgazmalar o'quvchilarda nota asosida kuylash malakalari shakllanib borishi, qo'shiq kuylashni tezroq o'zlashtirilishiga erishiladi. Tovushlarni to'g'ri, sof va toza intonatsyada kuylash esa, qo'shiq matnini yaxshi eslab qolishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, umumta'lim maktabida musiqa madaniyati darsiga puhta tayyorgarlik ko'rish va uni samarali o'tkazish o'qituvchidan doimo ijodiy yondashuvni, kasbiy tajribalarni, bilim, malaka hamda ko'nikmalarni faol tadbiq etishni taqozo etadi. O'qituvchi ijodining natijasi bo'lgan dars g'oyaviy-emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lib, o'quvchi ichki dunyosini zabit etib, musiqa san'atiga qiziqish va ehtiyojni tarbiyalaydi. Musiqa darsining muvaffaqiyati savodxon, chuqur bilimli, o'z kasbiga fidoiy bo'lgan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Shu bois, musiqadan bilim va malakalari yetarli bo'lman o'qituvchilarga musiqa darsini o'tishda mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib turish MP3 yozuvlardan keng foydalanib, musiqa o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o'tishlariga maslahat beriladi. Aks holda, o'quvchilarning belgilangan dastur talablarini o'zlashtirishlari mushkullashib, musiqa madaniyati darsi oldiga qo'yiladigan talablarga erishilmay qoladi.

1.2 Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining ahamiyati

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan, ma'naviy tomonidan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rinn tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: "Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmiyan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtida qalbga chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rak qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks holda uning teskarisi bo'lib chiqadi".

Uning shogirdi Aristotel (Aflatun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. "Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi". Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Forobi esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quydagicha bayon etadi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir".

Musiqa inson ruhiyatiga va aqliy rivojiga beباho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvai xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: "Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loaqla haftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zimga qoida qilib olardim". Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat, shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlaridan biridir. Bu oljanob maqsadga erishishda musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. O'quvchilar qobiliyat musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyat-bu insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilm olishi hamda uni amaliyotda muvaffaqiyatlari qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

O'zbekistonda talim-tarbiya tizimi hamma o'quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga har bir o'quvchida mavjud bo'lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib ularning individual o'ziga xosliklarini hisobga olgan

holda tabaqalashtirilgan yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlarning namoyon b'lishi uchun esa inson ko'p mehnat qilishiga to'g'ri keladi.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarni e'tiborga olib uni ilk yoshidan boshlab to'g'ri tashkil qilish va yo'naltirish muhim pedagog vazifadir. Aks holda bola rivojlanishida orqada qolishi seziladi. Misol uchun, bolani ilk yoshidan boshlab musiqiy tovushlarning balandligi bo'yicha tushuncha berilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Musiqaviy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

- eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati;
- har xil xarakterdagi musiqalarga emotsiyal munosabatning sifati va darajasi.

Qo'shiq kuylashda, musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko'nikmalar quyidagicha hosil bo'ladi:

✓ Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash va uni kengaytirib borishga alohida e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'pgina o'quvchilarning ovoz diapazoni, birinchi oktava «lya» dan yuqoriga o'tmaydi. Zero, dasturdagи qo'shiqlarning diapazoni birinchi oktava «do» dan uchinchi oktava «do» gacha ko'tariladi. Natijada, o'quvchilar qo'shiqnı bu pardalarda noto'g'ri ijro etadilar yoki umuman aytalma olmaydilar. Shu tufayli o'quvchilar ikki guruuhga ajratish, ya'ni ovozi yuqori pardalarni ololmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari qolganlari kuylashi talab qilinadi. Shuningdek, ikki ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda qo'l keladi. Har bir guruuh ovozining alohida kuylashi o'quvchilar ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik hissini tarbiyalaydi.

✓ Ikkinci sinf o'quvchilar o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra birinchi sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Qo'shiq, raqs, marsh janrlarining musiqiy xususiyatlarni farqlash kabi tushunchalar hosil bo'ladi. Qo'shiq kuylashga e'tibor kuchayadi, o'qituvchi ovozi va cholg'u asbobi ovoziga tayanib o'quvchilar ikki guruuhga bo'lib, kuyning bir jumlasini ketma-ket ijro etishdan ikki ovozlik hosil qilib qo'shiqlar o'rgatadi. Do¹-Re² diapazonidagi bir va ikki ovozli qo'shiqlar kuylatiladi. Musiqa xarakteri va janr ifodalarini anglash va tasvirlashda musiqali-ritmik harakatlardan va o'quvchilar cholg'u asboblaridan keng foydalaniladi. O'quvchilar o'zbek xalq qo'shiqlari va cholg'u asboblari hamda kompozitorlar ijodi bilan tanishtiriladi.

✓ Uchinchi sinf o'quvchilar o'zlarining psixologik xarakteriga ko'ra 1-2 sinflardan sezilarli darajada farq qiladi. Ikkinci sinfda olingen bilim va malakalar musiqa qonuniyatlariga doir yanada aniqroq nazariy bilimga aylanadi. Ularning diqqat-e'tiborlari turg'un, nutqi ravon bo'ladi, ovoz apparatlari shakllangan bo'lib ikki ovozli asarlarni kuylash malakasiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib boradi.

✓ To'rtinchi sinfda o'quvchilar psixologik jihatdan hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat-e'tibori teran, jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajmi jihatidan kattaroq bo'lgan musiqiy asarlarni ham eshitishga qodir bo'ladilar. Taqqoslash, izlanish jarayonida ikki ovozli qo'shiqlardan jo'rsiz (a'capella) asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Musiqa tinglash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga o'zbek xalq musiqasi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, o'zbek xalq musiqasining qardosh xalqlar musiqasi bilan yaqinligi va o'xshashligi haqida ma'lumot berishi lozim. Bundan tashqari musiqiy to'garaklarga o'quvchilarni jalb etish, dastalar (ansambl) tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

✓ Besinchi sinfda tayanch ta'lim bosqichi boshlananib, o'quvchilarning psixologik tomonlari ancha o'zgargan bo'ladi. Ular diqqat-e'tiborli, fanlarga nisbatan qiziqish, izlanish, o'zining sevgan mashg'uloti mavjudligi bilan farq qiladi. Fikrlash birmuncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali quroldan ko'ra, so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatları rivojlana boshlaydi. Ammo vokal-xor malakalari, ovoz diapazonlari notejis bo'ladi. (birinchi ovoz Do¹-mi², ikkinchi ovoz Do¹ (si kich)-Do² (re²) diapazonlarida bir va ikki ovozli qo'shiqlar kuylash). Shu sababli ularda sof unison ansambl ikki ovozda kuylash ishi murakkab amalga oshadi.

✓ Oltinchi sinflarda o'quvchilarda o'spirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda faol o'zgarishlar ro'y beradi. Bo'yining o'sishi, ovozining o'zgara borishi, fanlarga qiziqishi va mustaqil fikr yurita

olish qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay horg‘inlik holatlari ro‘y beradi. Bu davrda o‘qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo‘lishi, do‘stona suhbatlashishi talab etiladi.

✓ Yettinchi sinf o‘quvchilarida psixologik-fiziologik jihatdan ayrim o‘zgarishlar paydo bo‘ladi, emotsiyal holatlari, darsga nisbatan horg‘inlik alomatlari paydo bo‘ladi. Dars davomida o‘quvchilarning kayfiyatları o‘zgarib turadi. Mazkur holatda dars maqsadlariga erishishning yagona sharti sinfdagi har bir bolani yaxshi o‘rganib, dars mazmunini yuksak musiqaviy darajada olib borishdan iboratdir. Bu davrda ko‘pchilik o‘quvchilarda mutatsiya davri avj oladi, shunga qaramasdan ovozlar jarangdor yangraydi. O‘qituvchi ularning ishchi diapazonini toliqtirmasligi va qo‘sish kuylash miqdorini buzmasligi lozim.

O‘quvchilarni musiqa yordamida tarbiyalashda asosiy vazifa, ularga o‘zbek musiqasining butun rivojlanish tarixi davomida to‘plangan barcha musiqa madaniyati boyliklarini yetkazish, ular onggiga singdirish lozim. Zotan, shu jarayonda milliy asoslar kichik yoshdagi o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o‘stirishda tabiiy va qulay zamin hisoblanadi.

Xalq musiqa san’ati o‘zining tuzilishi va ijrochilik uslubi bilan ikki turga bo‘linadi:

1. Ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlar.
2. Og‘zaki an’anadagi kuy va qo‘shiqlar.

Ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlar

Ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlari birinchi turga moyil, deb hisoblanadi. Bu janrlar shuning uchun ham ommaviy deb ataladiki, ular sodda va ijroda qulay bo‘lganligi sababli, har bir tinglovchi biror ustozidan maxsus ta’lim olmasa-da, ularning ijrosini to‘y-hasham, bayramlar va boshqa marosimlarda eshitib ular ijrosiga qo‘silib, o‘rganib ketadi. Natijada ommaviy janrlarning ijrochilari xalq orasida ko‘pchilikni tashkil etadi.

Og‘zaki an’anadagi kuy va qo‘shiqlar

Og‘zaki an’anadagi ustozona musiqa janrlarini esa osonlikcha o‘rganib ijro etish qiyin. Chunki ularning tuzilishi murakkab bo‘lib, katta avjlar va murakkab ritm-usullardan iboratdir. Shu bois professional musiqani ijro etish uchun boy tajriba, yuksak ijrochilik mahoratiga, jarangdor va shu bilan birga keng diapazonli ovozga ega bo‘lish lozim. Ayniqsa, ularni ijro etish jarayonida ochirim va nola kabi ijrochilik ifodalarni qo’llash lozim bo‘ladiki, u ijrochidan yuksak mahorat talab etadi. Shuning uchun professional musiqa janrlariga oid bo‘lgan ashula, katta ashula, epik dostonlar va maqomlarni ijro etish maktabini o‘rganish uchun yetuk ustozsan’atkorlardan yillar davomida saboq olish bo‘ladi.

O‘tgan asrlarda musiqa amaliyotida nota yozushi deyarli qo‘llanilmaganligi sababli xalq musiqasi og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Musiqa madaniyatimizni rivojlantirishda va uni avloddan-avlodga meros qoldirishda xalq musiqa san’ati ustalarining xizmatlari benihoya kattadir. Ular xalq musiqasini mukammal bilgan, ularni yuksak mahorat bilan ijro etgan va yangi kuy, qo‘shiqlar yaratib musiqamizni yanada boyitgan har bir bastakor, mashshoq va xonanda xalqimizning katta hurmatiga sazovor bo‘lgan.

Respublikamizda xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan ashulachilarga «O‘zbekiston xalq hofizi», degan faxriy unvon berilishi ham shu boisdandir. Xalqimiz orasida mashxur bo‘lgan atoqli san’atkorlarimiz juda ko‘p bo‘lgan. Ota G‘iyos Abdug‘ani, Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Shorahim Shoumarov, Levi Boboxonov, Usta Shodi Azizov, Matpano Xudoyberganov, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Matyoqub Harratov shular jumlasidandir.

Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirish, ma’naviy kamol toptirish, ma’naviy-siyosiy onggini o‘stirish va estetik-axloqiy tarbiya borasida san’at, xususan musiqa san’ati o‘zining ta’sir kuchi bilan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u eng qadimiy, ayni chog‘da zamonaviy va xalqning sevimli san’ati hisoblanadi.

I bob yuzasidan mustaqil ta’lim uchub topshiriq va nazorat savollari:

1. Didaktika to‘g‘risida tushuncha bering.
2. Musiqa t’lim-tarbiyasining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
3. Umumdidaklik prinsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darsida qo‘llanilishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Xalq musiqa san’ati o‘zining tuzilishi va ijrochilik uslubi bilan necha turga bo‘linadi va ular qaysilar?
5. Musiqa darsining boshqa fanlaridan farq qiladigan xususiyatlarini aytib o‘ting.
6. Musiqa darsida qanday interfaol metodlar qo‘llaniladi?
7. Shaxs kamolotini rivojlanishida musiqa qanday ahamiyatga ega?

II BOB. MUSIQA TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1 Musiqiy ta'larning maqsadi, vazifalari va mazmuni.

Dars-o'quv tarbiya jarayonida maqsadlarni amalgalashishda asosiy ta'limgan shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchini ham qanoatlantirish uchun ma'lum darajada umumiy bo'lgan ba'zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars fan ishchi dasturida o'z o'rniga ega bo'lib, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlataladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan biri shuki, beriladigan o'quv materiali tizimli ravishda osongan-qiyinda, oddiydan-murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalgalashish kerak.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar.

Mavzuni taqvimli rejalashtirish asosida dars o'tkazishning aniq ishlab chiqilgan rejasi mavjud bo'lishi va dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmog'i lozim. Darsni tashkil etishda turli xil vositalar, jumladan o'quv-texnik va ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi. Dars juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, darsni bir marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va o'zgarmaydigan, ya'ni qotib qolgan namuna asosida olib borish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoni shart-sharoitlari, shuningdek, o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi.

Har bir dars boshqa darslardan o'zining o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim o'qituvchining maxsus "Pedagogik yondashuv tarzi" ni ko'rish mumkin. Masalan: Kombinatsiyalashgan ya'ni rejalashtirilgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish qismi, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'qituvchi tomonidan yangi mavzuni bayon etish, o'rganilgan mavzu materiallarini mustahkamlash, uyg'a vazifa hamda topshiriqlar berish va hokazo. Darsni yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning bilimiga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e'tibor bermaydilar. O'qituvchi darsda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni, ya'ni hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqeini saqlagan holda yondashishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaat shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqdir. Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z hissiyorini aks ettirishni inkor etmaydi. U darsda faqatgina ziyrak, mehribon, quvnoq, hushyor, ko'ngilchan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak. O'qituvchining pedagogik mahorati, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoni yaho berish, ularga doimi zaruriy yordam ko'rsatishga tayyor turishlik kabi ishlar bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiliy fazilatlarni shakllantiradi.

Umumta'limgan maktablarda musiqa darsining asosiy maqsadi—o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy-badiiy did, axloqiy-estetik his-tuyg'ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy ehtiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa orqali inson his-

tuyg‘ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo‘yadi. O‘quvchilarda musiqaga mehr va havas uyg‘otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Maktablarning boshlang‘ich va o‘rta sinflarining har birida xor to‘garaklari, sharoiti bor bo‘lgan maktab sinflarida esa cholg‘u asboblari bo‘lishi kerak. Ayni vaqtida o‘quvchilarga yakka tartibda musiqa o‘rgatish ishlarini amalga oshirishga e’tibor berish, bu ishga ota-onalar, jamoatchiligni jalg etish lozim. Maktabda egallangan musiqa bilimi va malakalaridan kundalik hayotda, maktabda musiqiy kechalar o‘tkazishda, “Mustaqillik”, “Mehrjon”, “Yangi yil”, “Navro‘z”, “8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni” bayrami, musiqa va san’at bayramlarida hamda ekskursiya-sayrlariga chiqqanda foydalanish kerak. Shuningdek, o‘rganilgan qo‘shiqlar uyda oila a’zolari oldida, o‘rtoqlar davrasida aytishli mumkin.

Umumta’lim maktablarida 7-yil davomida musiqa darsi mutnazam ravishda olib boriladi. Natijada o‘quvchilar musiqa savodiga ega bo‘lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, kontsertlarni, radio va televideniya orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo‘yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to‘garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo‘lib yetishishadi. Yuqorida sanab o‘tilgan tadbirlarni amalga oshirishda bosh tarbiyachilar, sinf rahbarlari va ota-onalar musiqa o‘qituvchisiga yaqindan yordam berishlari juda zarur. Darsning har bir faoliyat turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak, metallafondan foydalanish shuningdek, o‘quvchilar musiqa asboblarida chalish, kuy va qo‘shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarini chalinishini qo‘l harakati bilan imitatсиya qilish, qo‘shiqlarga ritmik jo‘r bo‘lib chapak chalish, asarlarga dirijyorlik qilishidan keng foydalanish darsni yanada qiziqarli hamda jozibali bo‘lishini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda dars faoliyatları 5 ta turdan iborat. Shunga ko‘ra musiqa darsining quyidagi faoliyat turlari asosida tuzulishini unutmaslik kerak :

1. Xor bo‘lib kuylash ;
 2. Musiqa savodi ;
 3. Musiqa tinglash;
 4. Musiqaga mos ritmik harakatlarni bajarish;
 5. O‘quvchilar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish;
- O‘rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan:
1. Xor bo‘lib kuylash ;
 2. Musiqa savodi ;
 3. Musiqa tinglashdan iborat ko‘rinishlarda tuziladi.

Xor bo‘lib kuylash - musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o‘qituvchining bevosita ishtiropi bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv hujayralari ham faol ishga tushadi. U qo‘sinq kuylash davomida o‘quvchilarda ijobjiy his-tuyg‘ularning faolligini ta’minlaydi va shu bilan birga o‘quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

O‘qituvchi sinf o‘quvchilarining kuylash imkoniyatlarini hisobga olgan holda yil davomida o‘rgatish uchun 10-12 ta qo‘sinq tanlaydi. O‘quvchilarning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularning ma’lum tartibga soladi.

Musiqa darsida o‘quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi. Bu, malakalar qo‘sinqning to‘g‘ri, ta’sirli aytishini taminlaydi hamda o‘quvchilar ovozining yaxshilanishiga va shu bilan birga parvarish qilinishiga ijobjiy yordam beradi. O‘quvchilarning ovoz apparatlari, musiqa o‘quviga qarab o‘sadi. Shuning uchun qo‘sinq kuylash malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diksiya, soz, ansambl kabilar dasturda har bir o‘quv yili uchun alohida-alohida beriladi. Ta’lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog‘lanib olib boriladi.

Musiqa savodi. Ma’lumki, umumiylar ta’lim maktabi musiqa madaniyati darsi tarkibida musiqa savodi o‘zining musiqa haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan ajralib turadi. Qo‘sinq kuylash jarayonida o‘rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqa savodi turkumiga musiqa janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, musiqaning ifoda vositalari, xalq

musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg‘u asboblari, ularning tovush tembrlari va boshqalar kiradi. 7-yillik musiqa ta’limi va tarbiyasi jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o‘quvchilarning musiqa savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu, musiqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqa tinglash. O‘quvchilarning musiqiy ta’asurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o‘stirish va musiqiy didni tarbiyalashda darsning musiqa tinglash faoliyati katta rol o‘ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o‘quvchilar musiqa o‘qituvchisi ijrosida, MP3 yozuvlarda yozilgan eng nodir musiqa asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar va san’atning katta dargohiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning san’at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat, hayot go‘zalligini voqelik va hatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko‘z ilg‘amas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo‘yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq his qiladilar. Kuylar o‘quvchilarning xotirasida chuqur o‘rnashib qolishi uchun kuy ohanglarini o‘quvchilar bilan kuylab ko‘rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, maktab darslida berilgan asarlar musiqa asbobi ijrosida tinglanib, so‘ng uni kuylab ko‘rish orqali qayta mustahkamlanadi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta tinglash, har gal tinglash jarayonida kuyning yangi-yangi dinamik qirralari, mazmun-mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o‘quvchilar musiqaning turli janrlari, ya’ni marsh, qo‘sish va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo‘ladilar. Darsning har uch asosiy faoliyat turi alohida-alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda darsning mazmuni bir butun bo‘lishini ta’minlashi lozim. O‘quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o‘zaro uyg‘un kuylashini mustahkamlash uchun ba’zan ularni sinf sahnasiga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo‘sish to‘liq o‘rganib bo‘lingach, haftada yoki chorak oxirida o‘quvchilar “Sinf konserti”ni beradilar. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o‘z o‘rnini topib turish, kuylaganda bir-birlarini eshitib his qilish kabi sahna madaniyatiga qat’iy amal qila borish o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. “Sahnada” kuylash o‘quvchilarning qo‘sishni qay darajada o‘rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumlalarini mustahkamlab olish va qo‘sishni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. «Sinf konserti» o‘quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg‘ulotga aylanadi.

2.2. Musiqa darsida musiqa savodi o‘rgatish metodikasi

Musiqa savodi faoliyat turi umumta’lim maktablarining musiqa darsining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, xor bilan qo‘sish aytishga nisbatan ikkinchi darajali o‘rin tutadi. Shunga qaramasdan musiqa savodi musiqa ta’limida katta rol o‘ynaydi. Musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang‘ich bilim berilib, o‘quvchilarning musiqiy bilim saviyasini oshirib borishiga yordam beradi. Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Eng muhimi notaga qarab kuylash va qo‘sish aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o‘stirishga ta’sir ko‘rsatish, vokal-xor ovozlarini aniq talaffuz etishga hamda xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug‘dirish yo‘li bilan sinfda qo‘sish o‘rgatishni osonlashtiradi. Musiqa darsida musiqa savodiga juda oz vaqt, 5-10 daqiqa ajratiladi. Shu sababli har gal qo‘sish o‘rganish, musiqa asarlarini tinglash jarayonida o‘quvchilarni eshitish malakalarini hamda musiqa bilimini mustahkamlab, chuqurlashtirib borishi kerak. Maktabda musiqa savodini o‘rganishda qo‘yiladigan asosiy metodik talab olingen musiqaviy bilimni bevosita amalda qo‘llash hamda savod o‘rgatish bilan birgalashib qo‘sish aytishni bir-biriga chambarchas bog‘lab borishdan iborat. O‘quvchilar mustaqil qo‘sish ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o‘rgana oladigan bo‘lgan vaqlardagina musiqa savodini o‘rganishdan ko‘zlanadigan maqsadga erishilgan bo‘ladi. Musiqa savodini o‘rganish o‘quvchilarning musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o‘sishiga asoslanishi kerak. O‘quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushurishdan oldin uning qanday yangrashini aniq ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya’ni “ko‘rayapman-eshitayapman-kuylayapman” deb, ko‘zga ko‘rinadigan narsadan eshitiladigan

narsaga qarab borishi lozim. Musiqa darsida jamoa bo‘lib qo‘sinq aytishda ham musiqa savodini o‘rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi.

Musiqa savodini o‘rgatishning boshlang‘ich davri quyidagilar:

Musiqa savodini o‘rgatish 1-sinfdan boshlab amalga oshiriladi. Ko‘pgina o‘quvchilar maktabgacha tarbiya davrida bog‘chaga qatnab, bog‘chadagi musiqa mashg‘ulotlarida bir qancha musiqaviy malakalar hosil qilgan bo‘ladilar. Ular ko‘pgina qo‘sinq va o‘yinlar o‘rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo‘ladilar va h.k.

Uyda tarbiyalanadigan o‘quvchilar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo‘ladilar. Ular radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo‘ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va tizimga solinmagan bo‘lsa-da, ammo musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o‘sha bilimlarga ma’lum darajada suyanib ish ko‘rishi mumkin.

1-sinfda o‘quvchilarning butun musiqa ta’limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o‘qituvchi o‘qitish metodikasini ayniqlasa yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini, ularning musiqa hamda vokal qo‘sinqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur.

1-sinfda ta’limni shartli ravishda ikki bosqichga ajratiladi. Bundan asosiy maqsad o‘quvchilarning musiqa o‘quvini o‘stirishdir. Bu bosqich odatda o‘quv yilining birinchi yarmini to‘liq egallaydi. Shu vaqt mobaynida o‘quvchilar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho‘zimi kabi o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata bilishga o‘rganishlari hamda nota yozuvini o‘rganishga tayyorlanishlari kerak.

O‘quv yilining ikkinchi yarmi - ikkinchi bosqichda nota savodi, ya’ni musiqa tovushlarining chizma (grafik) usulda ifodalanishi - nota yozuvini bevosita o‘rganishga kirishiladi.

Tovushning baland-pastligi. Registrlar (o‘quv yilining birinchi yarmida)

Musiqa darsida tovushlarning baland-pastligi tushunchasini o‘rganish o‘quvchilardagi mavjud tasavvurlarini aniqlashdan boshlanadi. Dastlab o‘quvchilar musiqiy terminlarni adashtirib, baland tovushlarni past tovushlar, deb va aksincha, balandlik haqidagi tasavvurini qandaydir katta bir narsa bilan bog‘liq bo‘ladi (baland bo‘yli erkak, baland tovush va h.k.), deb hisoblaydi. Shuningdek, ular ko‘pincha baland tovushlarni «ingichka tovushlar» deb, past tovushlarni «yo‘g‘on tovushlar» deb atashadi. Shuning uchun o‘quvchilarni bir yo‘la to‘g‘ri musiqiy terminlardan foydalanishga o‘rgatish, baland va past tovushlarni eshitib, ularni bir-biridan farqlay bilish hamda to‘g‘ri atashga odatlantira borish lozim.

Balandligi jihatidan turlicha bo‘lgan tovushlarni emas, balki registr tushunchasi bilan birlashgan tovushlar gruhini o‘rganishdek ana shu jihat uzoq davom etadigan, serdiqqat ish boshlanadi. Bu musiqiy termin haqida o‘quvchilarga ma’lumot bermaslik mumkin, ammo registr tushunchasining mohiyati haqida ularning aniq tasavvur hosil qilishlari, kuyni o‘rta, yuqori registrlardagi tovushlarni ajrata bilishga o‘rganishlari juda muhimdir.

“Baland” yoki “past” tovushlar haqidagi tushunchani izohlab berishda tegishli assotsiatsiyalar¹ hosil qilish uchun o‘quvchilarning hayotga, maishiy turmushga xos bo‘lgan qushchaning osmonda chirillab sayrashini, yoqimli, jarangdor ovozi go‘yo yuqori osmonga intilayotgandek yengil va ravshan sofligi bu tovushlarning baland-pastligini, aksincha, ayiq, fil, arslon kabi hayvonlarning bo‘kirishidan eshitiladigan tovushlar, ularning o‘zлari singari, xuddi yerdan ko‘tarila olmagandek qo‘pol, og‘ir, past tovushlar ekanligini gapirib berish mumkin. Obrazlilik o‘quvchilarning yorqin va shu bilan birga aniq musiqaviy taasurotlar hosil qilishlariga yordam beradi.

Registrler haqidagi tushunchani mustahkamlash va o‘zlashtirishni tekshirib ko‘rish uchun quyidagi o‘yin-mashqlarni o‘tkazish foydali bo‘ladi. Musiqa o‘qituvchisi o‘zining musiqiy cholg‘u asbobida qo‘sinqni turli registrlarda ijro etadi. O‘quvchilar esa ularni qo‘l harakatlari

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Assotsiatsiya>

bilan ko'rsatib borishlari kerak. Agar qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, ular qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, pastki registrda chalinayotganda esa pastga tushirishadi, o'rta registrda o'quvchilar qo'llarini oldinga uzatishadi. Bu o'yinni tikka turib bajarilsa yaxshiroq natija beradi. Shu xildagi holatlar ko'zlanadigan asosiy maqsaddan tashqari, bir yo'la go'yo jismoniy yengillikka ham erishilib darsda ko'tarinki ruh paydo bo'ladi. Tovushlarning baland-pastligini aniqlash birinchi oktava bilan cheklangach, shu tovushlarni eshitishi bilan emas, balki, ularni kuylashni ham talab etish kerak. O'shanda o'quvchilarning eshitib tasavvur hosil qilishlari bilan bir vaqtida ularda qo'shiqchilik sezgilari hosil bo'la boradi, chunki eng baland tovushlar qo'shiq aytishda o'rtacha va past tovushlarga qaraganda ko'proq kuch sarflashni talab etadi. Shu bilan bir qatorda qo'shiq o'rganish jarayonida o'quvchilarga avval ochirim shaklidagi bir tovush, keyinroq esa o'ziga xos melodik misolga (davruga) mo'ljallangan ikki mashqni kuylash taklif etiladi. Bunda o'quvchilarning diqqatini shunga ko'proq tortish kerak. Birinchi holatda ular ayni bir tovushni takrorlashadi, ikkinchi holatda esa ikki turli tovushni kuylashadi.

O'quvchilarda notaga qarab kuylash bilimlari yetarli ravishda to'plangandan keyin, quyidagi topishmoq – o'yinini o'tkazish mumkin: O'quvchilarga tanish bo'lgan qo'shiq grafik shaklda tasvirlanadi va buning qanday qo'shiq ekanligini topish, keyin esa uni aytish taklif etiladi. So'ngra qo'shiq nota yozuvidan topiladi va kuylanadi. Agar o'quvchilarning ko'pchilik qismi bu topshiriqni muvaffaqiyatli bajara olsa, shundan so'ng ularga ancha murakkab bo'lgan topshiriqlarni ham berish mumkin. O'qituvchi mashqlar uchun qo'shiqlar tanlar ekan, ularni kuylashga qulay bo'lgan diapazondagi namunalardan bo'lishi kerak, chunki bunday qo'shiqni tanlash, aniq talaffuz etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratadi.

Tovushlar cho'zimi va ularning yozilishi

Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini egallash ustida olib boriladigan ish jarayonida ularning cho'zimi tushunchasi asta-sekin kiritiladi. Dasturda ko'rsatilgan musiqa asarlaridagi tovushlar faqat muayyan balandlikdagina emas, balki muayyan cho'zimga ham ega ekanligiga, qisqa va uzun, cho'ziq tovushlar borligiga ham diqqatni jalb etish lozim. Uzun tovushlarni cho'zib aytish kerak. Bunda qo'shiqning grafik rasmidan foydalaniladi, tovushlar bu grafik rasmida cho'zimga qarab qisqa yoki uzun chiziqchalar bilan ko'rsatiladi.

Ushbu mashqlarni bajarishda o'qituvchi avvalo, qo'shiqni qanday yozish kerakligini tushuntirib hamda ko'rsatib beradi. O'quvchilar qo'shiqni yoki melodik parchani aytadilar. So'ng musiqa ritmini qalam bilan partaga chertib chalib ko'rsatadi. Shundan keyin o'qituvchi kuyning ritmik tuzilishini daftarga yozishni taklif qiladi, tekshirib ko'rish uchun o'quvchilardan biri uni doskaga yozib qo'yadi.

Notalarni yozish. Nota yo'li. Kalit

Musiqa darsida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga nutqimizni, har bir so'zimizni harflar bilan yozish mumkin bo'lgani kabi, musiqani ham yozish mumkinligini, ammo buning uchun musiqaga xos harflarni – notalar, deb ataladigan musiqiy belgilarni bilish kerakligini tushuntirib beradi, notani yaxshi bilgan kishigina har qanday qo'shiqni ijro eta olishini ta'kidlab o'tadi.

Musiqada notalar nota yo'lida yoziladi. Bunda o'qituvchi nota yo'lining ahamiyatini izohlab beradi. O'qituvchi doskaga nota yo'lini chizib, o'quvchilarning chiziqlar sanog'i boshlanadigan joy - eng pastki chiziq - birinchi chiziq ekanligini bemalol esda qoldirishlari uchun pastki chiziqni chizishdan boshlashi lozim. So'ngra u notalarning chiziqlarda, chiziqlar orasiga, chiziqlarning ustiga va ostiga yozilishini, asosiy chiziqlar yetishmay qolganda esa notalar qo'shimcha ya'ni yordamchi chiziqlarda yozilishini aytib o'tadi. Shundan keyin o'qituvchi, nota chizig'i boshida maxsus belgi – **skripka (sol) kaliti** bo'lmaguncha yozilgan notalardan birontasini nomini ham nomlay olmasligini bu kalit yordamida esa barcha notalar nomi aniqlanadi, deydi. U bu kalitning nomi nima uchun skripka kaliti, deb atalishini aytar ekan, kalitning ikkinchi nomi bo'lgan Sol kaliti bilan ham o'quvchilarni tanishadiradi. Sol notasining qayerda turganligini bilib olgan o'quvchi boshqa notalarni ham topishi mumkin. O'quvchilar notaning o'rnini qanday topish kerakligini juda tez tushunib oladilar. Bu esa maroqli o'yinga aylanib ketadi. O'yin davomida o'quvchilar qayerda qanday nota yozilishini esda qoldiradilar.

O'quvchilarning nota yozuvini bemalol tushunib, birinchi oktava doirasidagi har bir notaning o'rnini yaxshi bilib olishlari uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilish mumkin:

- O'qituvchi notalarning nomlarini aytib turib yozdiradi yoki doskaga yozib beradi. O'quvchilar esa ularni nota yo'liga yozishlari kerak;
- O'qituvchi qo'shiq kuyini doskaga yozadi hamda o'quvchilardan uni daftarga ko'chirib yozishni va shundan keyin notalarning nomlarini yozib qo'yishni taklif etadi.

Bu, mashqlarni barcha o'quvchilar mustaqtil ravishda bajarishadi, so'ngra ulardan biri shu mashqlarni doskaga yozadi, boshqalari esa bajargan ishlari bilan solishtirib chiqadilar. Shunga o'xshash mashqlarni uyga vazifa qilib topshirish mumkin.

Tovushlar cho'zimining yozilishi


1-sinfning musiqa darsida musiqiy cho'zimlar nisbati, butun, yarimtalik, choraktalik, nimchorak (sakkiztalik), o'n oltitalik kabilari o'qituvchi tomonidan o'rgatilib boriladi.

Masalan: hech qanday qo'shimcha belgisiz doiracha shaklida yozilgan bo'lib ichi bo'yalmagan belgi:




-butun nota.

Ichi bo'yalmagan doirachaning o'ng va chap tomonidan vertikal tayoqcha (shtil) tushirilgan belgi:




yoki - yarimtalik nota (yarim).

Tayoqcha tushirilgan doirachaning ichi bo'yangan shakli:



yoki - choraktalik nota.

Ichi bo'yangan tayoqchaga bitta bayroqchasi bo'lgan shakli:




yoki - sakkiztalik nota (nimchorak).

Ichi bo'yangan tayoqchaning ikkita bayroqchasi bo'lgan shakli:



yoki - o'n oltitalik nota (o'n oltitalik).

Demak, butun notaning bo'linishi quyidagicha:



Bu materialni yaxshiroq o'zlashtirish uchun o'quvchilar ilgari chizma usulda chizib ko'rsatishgan qo'shiqni nota shaklida yozishni ularga taklif etish tavsiya qilinadi.

Shundan so‘ng o‘quvchilarga dastlab tovushlar nomini aniqlab, bu qo‘sinqni nota yo‘liga yozishni taklif etish mumkin. Bu 2-3 tovushga mo‘ljallab tuzilgan juda oddiy qo‘sinq bo‘lishi kerak.

O‘rta umumta’lim maktabining 1-sinfida musiqa savodini o‘rganish yuzasidan olib boriladigan ishning mazmunini yakunlab, quyidagilarni ta’kidlab o‘tish kerak:

- a) o‘quv yilining oxiriga kelib o‘quvchilar birinchi oktavadagi notalarni yaxshi bilishlari lozim;
- b) chorak va yarimtalik notalarni eshitib farqlay bilishlari va yoza olishlari kerak;
- c) o‘quvchilar tanish kuylar va mashqlarni eshitib olib, notalarning nomlarini aytish bilan bir vaqtida, ularni nota yozuvida kuzatib borganlari holda, birinchi oktava doirasida qo‘llay olishlari kerak;
- d) eshitib o‘rganilgan qo‘sinqni nota yozuvi yordamida so‘zi bilan aytib bera olishlari kerak;
- e) 2-3 tovushga mo‘ljallab tuzilgan melodik tuzilmani solfedjio (notaga qarab) kuylay olishlari lozim.

1-sinfda o‘quvchilarning ritm tuyg‘usini o‘stirish yuzasidan turli mashqlar olib boriladi. Qisqa, uzun va cho‘ziq tovushlar haqidagi tushunchalarni oydinlashtirish uchun, o‘qituvchi nimchorak notalar uchraydigan tanish qo‘sinqni doskaga yozib qo‘yadi. O‘quvchilarga uni ohanggi bilan aytib beradi va bundagi eng qisqa notalarni ko‘rsatib o‘tadi.

2-sinfda esa nimchorak notalar bilan tanishib boriladi.

3-sinfda o‘quvchilar butun nota va o‘n oltitalik nota haqida tasavvur hosil qilishadi. Bu sinfda endi nota cho‘zimlari to‘g‘risidagi tasavvurni yaqqol misollar asosida tizimga solish mumkin.

Pauzalar

O‘quvchilar 1-sinfdan boshlab notalar cho‘zimini o‘rganish bilan bir qatorda pauzalar bilan ham tanishadilar. Ular pauza tushunchasini qo‘sinq aytishda biroz to‘xtab o‘tish (dam olish) sifatida osonlik bilan idrok etishadi. Pauzalarning ahamiyatini o‘quvchilarga tanish bo‘lgan (ammo ilgari bunga ularning diqqati jalb etilmagan) qo‘sinq asosida tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi qo‘sinqni doskaga yozib qo‘yadi va yangi, notanish belgilarning alomatlarini ko‘rsatib o‘tadi. So‘ngra u, qo‘sinqni notaga qarab aytishni taklif qiladi va o‘quvchilar diqqatini qo‘sinqdagi shu belgilarning o‘rnini, qo‘sinq aytishda bir oz to‘xtab dam olishga to‘g‘ri kelishini o‘qtiradi. O‘qituvchi turli musiqa va qo‘sinqlar misolida pauzalarning muhim ahamiyati va asarning o‘ziga xos xususiyatini ifodalashdagi rolini jonli ijro yordamida ko‘rsatib o‘tadi. Qo‘sinq aytishda uchraydigan pauzalar vaqtida nafas olish oson bo‘ladi. O‘qituvchi kuylash uchun mo‘ljallangan mashqlardagi turlicha cho‘zimda uchraydigan kuylarni tanlaydi va ikki satrli mashqni o‘quvchilar bilan kuylash maroqli bo‘ladi. Bunda, yuqorigi satrni sinfning birinchi yarim, pastki satrni esa - ikkinchi yarmi kuylaydi, deb o‘qtirib o‘tadi. Ular galma-gal kuylashadi. Birinchi guruh sukut qilganida (jim turganida) nota satriga pauzalar qo‘yib chiqiladi:

The musical notation consists of two staves. The top staff is in G major (indicated by a G clef) and 2/4 time. It has three measures of notes followed by a bar line, then two measures of notes followed by another bar line, and finally two measures of notes. Below the notes are the lyrics 'Гу- ло- ла' and 'Гу- ло'. The bottom staff is also in G major and 2/4 time. It has three measures of notes followed by a bar line, and below the notes are the lyrics 'ла я- ши'.

Pauzalarning cho'zimlarini yaxshiroq esda qoldirish uchun quyidagi jadvalni yozish foydali bo'ladi:



O'quvchilarga quyidagi mashqlarni bajarishni taklif qilish mumkin:

a) ko'rsatilgan notalarga to'g'ri keladigan pauzalarni yozing:



b) cho'zimi jihatidan quyida ko'rsatilgan pauzalarga mos keladigan notalarni yozing:




Nuqtali pauza, notasi


3-sinfda o'quvchilar cho'zimlarning yana bir turi bo'lgan nuqtali nota va pauzalar bilan tanishadilar. O'qituvchi o'quvchilarga nuqta tovush cho'zimini teng yarimiga uzaytirishi haqida ma'lumot berib o'tadi. Ma'lumki, choraktalik nota ikki nimchorakdan iborat, demak, agar chorak notaning o'ng tomonida nuqta bo'lsa, uning cho'zimi bir nimchorak oshadi.



Boshqa nuqtali notalar quyidagicha cho'zimga ega bo'ladi:



Deyarli ayni paytda tovushlarni bir butun bog'laydigan belgi - **liga** haqida ham o'quvchilarga tushuncha berib boriladi. Masalan, liga orqali birlashgan yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi ikki tovush takrorlanmaydi, balki go'yo shakllanadi va jamlanadi. Ikki tovush qancha davom etishi kerak bo'lsa, bir tovush ham shuncha vaqt davom etadi:



Bundan tashqari, agar liga balandlik jihatidan turlicha bo'lgan ikki (yoki undan ortiq) tovushni birlashtirsa, u boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu holda liga tovushlarini bir-biriga bog'lab ijro etish (legato), qo'shiqda esa bu tovushlarni bir bo'g'in singari aytish kerakligini ko'rsatadi:

Liga tufayli nuqtali notaning boshqa bo'lishi mumkin. O'qituvchi nuqtali notaning aniq ifodalanishini qo'shiqlar misolida ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, biz notalar yozuvni bilan bog'liq bo'lgan asosiy ish metodlarini ko'rib chiqdik. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'quvchilar nota yozuvni bilan tanisha boshlagan

paytdanoq ulardan har xil nota belgilarini to‘g‘ri aniq va chiroyli ifodalab borishni talab etish zarur. Nota yozuvini mashq qildirish maqsadida uyda bajarish uchun o‘quvchilarga turli vazifalarni topshirish ma‘qul. O‘qituvchining nota yozuvini o‘quvchilarga namuna bo‘lishi, ya’ni nota yo‘llarini to‘g‘ri chizishi, notalarini aniq-ravshan va chiroyli qilib yozishi kerak. Sinfda ishslash uchun oldindan tayyorlab qo‘yilgan mashqlar chiroyli, ravshan va yaqqol aniq ko‘rsatilgan jadvallarni olib kirish yaxshiroqdir.

O‘lchov, takt va takt chiziqi

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda ritm tuyg‘usini o‘stirish ustida olib boriladigan ish, ularni nota cho‘zimi bilan tanishtirish tufayli o‘quvchilar musiqadagi o‘lchovni, shuningdek, takt va takt chizig‘ini idrok etishga tayyorlana borishadi. Musiqada kuchli va kuchsiz hissalarning almashinib turishi o‘lchov deyiladi. Masalan, agar bitta kuchli hissa bilan bitta kuchsiz hissa almashinayotgan bo‘lsa, bu ikki hissali o‘lchov hisoblanadi, bitta kuchli hissa bilan ikkita kuchsiz hissaning almashinib turishi uch hissali o‘lchovni tashkil qiladi.

2-sinfda o‘lchov bilan tanishuv 2/4 ikki hissali o‘lchovdan boshlanadi.

O‘quvchilarni o‘lchov va takt tushunchalari bilan tanishtirishning turli metodlari bor. Eng oddiy metod – she’r so‘zlaridagi urg‘ular bilan musiqa notasidagi urg‘ularni qiyoslab ko‘rsatishdir. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘sinq matnini o‘qib, urg‘uli bo‘g‘inlarning tagini chizib chiqishni taklif etadi. Qo‘sinq matnlari doskaga yozib qo‘yiladi, urg‘uli bo‘g‘inlar esa alohida belgi bilan ko‘rsatiladi. So‘ngra o‘qituvchi qo‘sinqning notasi va so‘zlarini doskaga yozadi, musiqada urg‘uli bo‘g‘in oldiga maxsus belgi qo‘yilishini, ya’ni nota yo‘li ustida yuqorida pastga qarab chiziq tortilishini tushuntirib beradi:

Urg‘u tushadigan barcha bo‘g‘inlar oldiga shunday chiziqchalarni qo‘yib chiqar ekanmiz, qo‘sinq kuyini qismlarga bo‘lamiz, bu qismlar taktlar deb, chiziq esa takt chizigi, deb nomlanadi.

O‘quvchilarning ana shu tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun bir necha xilmashxil mashqlarni bajarish mumkin:

- ✓ ilgari o‘rganilgan qo‘sinqlardagi urg‘u tushadigan bo‘g‘inlarni (kuchli hissalarni) aniqlash va takt chiziqlarini qo‘yib chiqish;
- ✓ o‘qituvchi musiqa asbobida ikki o‘lchovdagisi asarlarni chaladi, o‘quvchilarga esa sekin ovoz bilan bir-ikki, bir-ikki deb, sanashni taklif etadi.

O‘qituvchi oxirgi mashqni bajarar ekan, ovoz chiqarib sanash musiqa tinglashga xalaqit berishini, qo‘sinqlarni ijro etishda esa o‘quvchilarning ayni paytda kuylash va ovoz chiqarib sanash qiyinligini tushuntirib o‘tadi. Shu sababdan, musiqada sanoq uchun qo‘llarning alohida harakatlaridan foydalaniladi, ya’ni dirijyorlik qilinadi yoki, to‘g‘rirog‘i taktlarni qo‘l harakatlari bilan ifodalash usuli qo‘llaniladi. O‘qituvchi qo‘l bilan pastga ishora qilib, taktning kuchli hissasini va yuqoriga ishora qilib, taktning kuchsiz hissasini oddiy harakatlar bilan ko‘rsatadi. So‘ngra o‘quvchilarga shu harakatlarni takrorlashni taklif etadi. Dastlab ular ovoz chiqarib, bir-ikki deb sanab, musiqasiz dirijyorlik qilishga o‘rganishadi, keyin o‘qituvchini fortepiano cholg‘u asbobida tanish kuylarni chaladi, o‘quvchilar esa taktlarni ifodalashadi. Natijada ular ilgari o‘rganib olingan qo‘sinq va mashqlarga ayni paytda dirijyorlik qila bilishlari va ularni kuylay olishlari kerak.

Mavzularni mustahkamlash uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga tegishli mashqlarni bajarishni taklif qiladi va dirijyorlik ishora-sxemalarini ko‘rsatadi:

Shodlikka tol-di bu-gun-di-li -miz u-lug'-bay-ram-

dir bu yan-gi yi- li- miz

Tegishli o'Ichovni o'rganish paytida uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, shu o'Ichovni asrlarning badiiy obrazi bilan bog'lash kerak.

O'quvchilarni yangi o'Ichov bilan tanishtirib, uni ma'lum bo'lgan o'Ichov bilan taqqoslab ko'rish tavsija etiladi. Bu usul ularning turli o'Ichovlarni yaxshiroq anglab olishlariga yordam beradi. O'qituvchi ikkita musiqa asarini ijro etib beradi va uni eshitib, shu asarning o'Ichovini aniqlashni taklif etadi. O'qituvchi ijro etgan birinchi asarning o'Ichovini aytib berishi mumkin, ikkinchi asarning o'Ichovini esa o'quvchilarning o'zlari aniqlashlari zarur. Boshqa paytda o'quvchilar o'Ichovni mustaqil ravishda aniqlashlari uchun o'qituvchining chalib beradigan asarlardagi o'Ichovni aytib bermasligi mumkin. Buning uchun ular o'qituvchi chalayotgan vaqtida qalam bilan partaga chertib chalishlari mumkin, so'ngra o'quvchilardan biri birinchi asarning o'Ichovini, yana biri ikkinchi asarning o'Ichovini aytib beradi. Shuningdek, turli o'Ichovdagi ikkita asar doskaga (yoki jadvalga) yozib qo'yilgan bo'ladi, o'qituvchi shu asarlardan birini chaladi, o'quvchilar esa qaysi asar chalinganligini topib, uning o'Ichovini aytib berishadi.

O'quvchilar o'Ichov tushunchasini o'zlashtirib olishgach, ularga takt oldi (to'liqsiz takt)ni tushuntirib berish mumkin bo'ladi. Qo'shiqni ijro etishda takt oldi (taktning kuchli hissasiga nisbatan ancha yengil va kuchsizroq bo'lishi) ya'ni to'liqsiz taktni bilib olish zarur. O'qituvchi takt oldi bilan boshlanadigan tanish qo'shiqdan misol tariqasida foydalanib, diqqatni takt oldining bir tovushdan yoki bir necha tovushdan iborat bo'lishi mumkinligiga jalb etadi.

Tonika tushunchasi

Musiqa savodining muhim bo'limlaridan biri - asosiy lad (parda, balandlik) bog'lanishlarni o'rganish hamda parda turlari va ularning tuzilishi (major va minor) bilan, tonlik (ohangdoshlik)lar va intervallar haqidagi tushuncha bilan tanishishdan iboratdir. Aniq-sof talaffuzga erishish uchun o'quvchilarda ladni bilish tuyg'usini o'stira borishdan boshlanmog'i kerak.

O'rta umumta'lim maktabining II -sinfida o'quvchilarga melodik parchani kuylayotgan yoki chalayotgan asarning boshlama tonning keskin tortilishini ifodalaydigan bir qancha misollardagi tonikani oxirigacha kuylash taklif qilinadi:

1.

Shodlikka tol-di bu-gun-di-li -miz u-lug'-bay-ram-

dir bu yan-gi yi- li- miz

2.



Ammo o‘quvchilarga oldindan (T) tonika haqida tushuncha berilmay, ularning diqqati o‘rnashgan va o‘rnashmagan tovushlarga, bu tovushlarning bir-biri bilan bog‘lanishiga, o‘zaro bir-biriga tortilishiga jalg etiladi. Buning uchun birinchi navbatda o‘quvchilarda tonikani, ya’ni ladning balandligini belgilaydigan asosiy, tovushni eshitib bilishni hosil qilish zarur. Bu tovush kuyda xotima tovush bo‘lib hisoblanadi va ladning qolgan tovushlari, ayniqsa boshlama ton shu tovushga tortiladi.

Buning uchun o‘quvchilar melodiya (kuy) tizimning tugallanishi va tugallanmaganligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. O‘qituvchi misol tariqasida shunday musiqani tanlaydiki, bunda bir tarkib tonikada o‘rnashmagan bo‘lishi, boshqa bir tarkib esa – o‘rnashgan bo‘lishi lozim. U o‘quvchilarga har ikkala musiqaviy tarkibini kuylashni taklif qilishi bilan birga, bulardan qaysi biri tugallangan, qaysi biri esa tugallanmaganligini so‘raydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga tugallanmagan misolni takrorlashni va shu misol ham tugal eshitilmog‘i uchun oxirgi tovushni topish haqida topshiriq beradi. Bunday mashqlarni butun o‘quv yili davomida o‘tkazish va berilgan topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtira borish tavsiya etiladi. Avval boshda o‘quvchilar keskin tortiluvchi boshlama tondan keyingi (T) tonikani, undan keyin ladning boshqa bosqichlari bilib olishadi.


III- sinfda bu ish davom ettiriladi, natijada o‘quvchilar musiqa asarini tugallaydigan tovushning (T) tonika deb atalishini bilib olishadi. O‘qituvchi ikki misolni taqqoslar ekan. I- bosqichda – (tovushqator) gammaning asosiy bosqichida tugaydigan misol tugal eshitilishini tushuntirib beradi. O‘quvchilar endi Do major gammasini bilganliklari va kuylay olganliklari sababli, o‘qituvchi ularning diqqatini, bu gamma tonika bilan - do notasida boshlanib, shu tonikada tugallanganligi uchun Do major deb atalishiga jalg etadi.

Alteratsiya belgilari. ton va yarim ton

Lad va tonikani o‘rgangandan keyingi davr - alteratsiya (o‘zgartma) belgilari bilan tanishishdir. Buning uchun sinfda ko‘rsatma quroq -fortepiano klaviaturasi (klavishalar)ning katta qilib ishlangan jadvali bo‘lishi zarur. O‘qituvchi har bir oktavada 7 ta oq va 5 ta qora klavishlar borligini ko‘rsatadi. Bir oq klavishdan ikkinchisigacha bo‘lgan oraliq har xil: agar shu klavishlar o‘rtasida qora klavishlar bo‘lmasa - bu oraliq, oq klavishlardan qora klavishlargacha bo‘lgan oraliq kabi, yarim ton deb ataladi; agarda oq klavishlar o‘rtasida qora klavishlar bo‘lsa, bu oraliq butun tonga teng bo‘ladi:



So‘ngra o‘qituvchi oq klavishlarning o‘z nomlari borligini, qora klavishlarning nomi yo‘qligini, bularning oq klavishlar nomlariga bog‘liq ekanligini o‘quvchilarga tushuntirib beradi. Agar tovushni yarim ton ko‘tarish yoki pasaytirish kerak bo‘lsa, qora klavishlar ishlatiladi va qora klavishlar qaysi tovushning ko‘tarilayotganiga yoki pasaytirilayotganiga qarab nomlanadi. Buning uchun alohida belgilar bor. Yarim ton ko‘tarish belgisi **divez** deb, yarim ton pasaytirish belgshisi **bemol** deb ataladi. Bu belgilar ko‘tarish yoki pasaytirish kerak bo‘lgan tovush (nota) oldidan qo‘yiladi. Masalan:



Dars davomida o‘quvchilarga alteratsiya belgilari haqida tushunchalar berib boriladi. Bunda o‘quvchilar qandaydir ifoda yoki qoidalarni yod olishlari shart emas. Lekin ular qo‘sishqdagi alteratsiya belgilarini amaliy ravishda topa bilishlari yoki berilgan mashqlardagi shu belgilarni qo‘yib chiqa bilishlari va shu belgilarga muvofiq tovushlarni ovoz bilan o‘zgartira olishlari lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarga alteratsiya belgilarini tushuntirishda alteratsiya belgisi nota oldiga qo‘yilsa, uning ta’siri shu taktgagina yetishini, agar belgi kalit oldida qo‘yilsa, uning ta’siri butun asar davomida o‘z kuchini saqlashini tushintirish zarur.

Alteratsiya belgilarini yaxshiroq o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarga bir qancha mashqlarni bajarishni taklif qilish mumkin:

- ✚ quyidagi musiqa misolida pasaytirish belgisi bo‘lgan notalarni topish;
- ✚ tovushlarni klaviaturada (rasmda va fortepianova) ko‘rsatib berish kerak;
- ✚ birinchi oktavada fa-diyez, lya-bemol, si-bemol, mi-diyez va hokazolarni notalar bilan yozish;
- ✚ unison tovushlar bilan alteratsiyalangan tovushlar taqqoslanadigan misollarni kuylash.

Lad. Major va minor

Musiqa darsi davomida o‘quvchilar tonika (T) va alteratsiya belgilarini bilib olgandan keyin, musiqada keng yoyilgan asosiy ladlar - major va minor ladi bilan bevosita tanishishga o‘tish mumkin. Buning uchun o‘quvchilarni major va minor ladlarini ajrata olishga o‘rgatish juda muhimdir. Buni aynan bir kuy misolida turli ladlarda taqqoslab eshittirish yo‘li bilan o‘rganish osonroq bo‘ladi. Har ikkala kuyni doskaga yozib qo‘yiladi, o‘qituvchi avval major ohangini, keyin minor ohangini kuylashni taklif qiladi. Masalan:

The image contains two musical staves. The first staff, labeled 'Major', shows a sequence of quarter notes starting on G4, followed by eighth notes on A4, B4, C5, D5, E5, F#5, G5, and a half note on A5. The second staff, labeled 'Minor', shows a sequence of quarter notes starting on A4, followed by eighth notes on B4, C5, D5, E5, F#5, G5, and a half note on A5. Both staves are in 2/4 time and G clef.

U o‘quvchilarning diqqatini tovush yangrashining farqiga jalb etadi, ikkinchi misol kuyning birinchi misoldagiga nisbatan mayinroq eshitilishini o‘qtirib o‘tadi. Berilgan misolni kuylashda pardanening o‘zgarishi tufayli shunday eshitiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga major ladida yozilgan kuylarni shodiyona, xushchaqchaq lad sifatida, minor ladida yozilgan kuylarni esa vazmin, mungli lad sifatida birmuncha soddalashtirib izohlaydi. Bunday tushuntirish uncha aniq emas, chunki jahon musiqa adabiyotida major ladida yozilgan asarlar ozmuncha emas (F.Shopenning b-moll sonatasidagi motam marshining o‘rta qismi majorda “Posadili v ogorode” degan quvnoq rus xalq qo‘sishig‘i esa minorda yozilganligini eslaylik.) Shu sababli majorni va minorni ta’riflashda bularning lotin tilidagi ma’nosiga asoslanish ma’qul: dur (major) qattiq, moll (minor) esa mayin degan ma’noni bildiradi, shu tufayli major ladi tovushlarini qattiq, minor ladi tovushlarini esa mayin tovush deb ta’riflash tavsiya etiladi.

O‘qituvchi major va minor haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga xilma-xil mashqlari berishi mumkin. Masalan:

- o‘qituvchi tomonidan ijro etilgan kuyni o‘quvchilar eshitib, uning qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;
- doskaga ikki kuyni, ya’ni major va minorda yozilgan kuylarni yozib qo‘yadi, o‘qituvchi bularning birini ijro etadi, o‘quvchilar esa qaysi kuy va qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;

- major yoki minorda yozilgan hamda major bilan minorni taqqoslaydigan melodiyalarni kuylash.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tabiiy minorni o‘rganishlariga qarab ularni garmonik va melodik minor bilan asta-sekin tanishtirib boradi. U har qanday yangi asarlarni, asosan qo‘sinqa doir mashqlar, shuningdek, sinfda va uyda bajariladigan bir qancha yozma topshiriqlar asosida mustahkamlab boradi.

Bir oz keyinroq (V sinfda) o‘quvchilarga major va minor tonliklarining yondoshligi va nomdoshligi to‘grisida tushuncha beriladi.

Intervallar

1-sinfda o‘quvchilar berilgan mashqni yoki qo‘sinqni kuylashdan oldn qo‘sinq jo‘rsiz ijro etiladigan paytda o‘qituvchining ovozi bilan uning sozini - uchtovushlikni ifodalashiga o‘rganib qolishadi. O‘quvchilar shu uchtovushlikni birgalashib takrorlashadi, undan keyin mashqni kuylashishi talab etiladi.

Yuqori sinflarda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan bir tovushni tonikadan (T) boshlab mustaqil suratda so‘zni kuylashadi. Shu bilan birga, avval boshda ular major uchtovushligini, keyin minor uchtovushligini ovoz sozi bilan ifodalashga o‘rganadilar. Shu tariqa o‘quvchilarda intervallarni katta va kichik sekundalar hamda tertsiyalarni talaffuz qilishga oid muayyan musiqa tajriba yig‘ila boradi. Bundan tashqari, qo‘sinqlarda boshqa intervallar ham urchaydi. Shu sababdan 5-sinfda intervallar, ularning tuzilish xususiyatlarnini o‘rganishga kirishish mumkin.

O‘qituvchi **interval** so‘zi - tovushlar o‘rtasidagi oraliqni bildirishini tushintirib beradi.

O‘quvchilar 1 sinfdan boshlab tertsiyani sozlash tariqasida bilishadigan va eshitib olib uchtovushlik turlicha eshitiladigan ikki tertsiyadan iborat ekanligini izohlab beradi. O‘qituvchi uchtovushlikni doskaga yozib qo‘ygach, o‘quvchilar bilan birgalikda major uchtovushligida tertsiyaning nechta butun ton va nechta yarim tondan tashkil topganligini aniqlaydi. Birinchi tertsiya ikki tondan, ikkinchi tertsiya bir yarim tondan iborat ekanligiga ishonch hosil qilingach, o‘qituvch, tertsiyalar, sekundalar katta va kichik bo‘lishlari mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Tanish qo‘sinqlар intervallar ustida olib boriladigan ishda yordam beradi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga biror qo‘sinqni esga olishni taklif etadi. Uni doskaga yozib qo‘yadi va qo‘sinqning qaysi intervaldan boshlanishi sifatida kuylashni talab etadi.

Intervallarni izohlab berishda interval nomlarining matematik ma’nosini o‘quvchilarga tushuntirish va raqamli yozuvini ko‘rsatish muhim. Masalan lotincha sekunda so‘zi ikkinchi degan ma’noni bildiradi, ya’ni u ikki yonma-yon tovush orasidagi oraliqni belgilaydi va 2 raqami bilan ko‘rsatiladi. **Tertsiya-** uchnichi demakdir. U uch ketma-ket tovush (do, re, mi) orasidagi oraliqni qamrab oladi va 3 raqami bilan belgilanadi. Shu intervalning katta yoki kichik interval ekanligini ko‘rsatadigan so‘zning birinchi bo‘g‘ini ma’lum raqamdan keyin yoziladi. Masalan: 2 kat yoki katta sekunda, 3 kich yoki kichik tertsiya. Raqamli yozuvni bilish musiqiy diktantlar yozish paytida intervallar yozuvini osonlashtirishga yordam beradi.

Intervallarni o‘rganish davomida o‘qituvchi o‘quvchilardan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, shu bilimlarni amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini ham egallahshi talab etadi. Ular berilgan notadan har bir yangi intervalni tuza bilishlari bilangina kifoyalanib qolmasdan, uni pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga qarata tuzilishi va kuylashni ham, so‘ngra eshitib olib melodik va garmonik bayon qilishni ham topa bilishlari kerak.

Intervallar solfedjio (notaga qarab kuylash) malakalarini egallahsha yordam beradi. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilarga turli topshiriq hamda mashqlarni berib borishi lozim. Intervallarni aniqlashga mo‘ljallanadigan yozma va og‘zaki diktantlar ham shular jumlasiga kiradi. O‘qituvchi fortepiano cholg‘u asbobida bir nechata intervalni ijro etadi. O‘quvchilar esa eshitgan intervallarni raqamlar bilan yozib borishadi. Oqituvchi tomonidan shu intervallarning hammasi tekshirib ko‘rilgandan keyin, o‘quvchilar ularni kuylashadi. Intervallarni melodik holatda tinglash osonroq bo‘lgani uchun o‘qituvchi avval ularni dastlabki shaklida chalib beradi. O‘quvchilar buni yaxshi o‘zlashtirgach, intervallarni garmonik holatda aytib yozib ko‘rsatishi mumkin.

Berilgan topshiriqlarni sinfda va uyda mustahkamlab borish uchun o‘qituvchi yozma yoki og‘zaki topshiriqlar berishi mumkin:

- a) birinchi oktavaning lya, re, fa, mi tovushlardan barcha oddiy intervallarni tuzish;
- b) musiqa misolida uchraydigan intervallarni aniqlash;
- g) tanish qo‘shiqlardagi, shuningdek notaga qarab o‘rganib olinayotgan yangi qo‘shiq yoki mashqlardagi kuyning interval tuzilishini aniqlash.

2.3. Vokal-xor ijrochiligi madaniyatini shakllantirish texnologiyalari

Xor jamoalarining ijrochilik madaniyati xonandalarning vokal (qo‘shiq) va xor ijrochiligi mahoratlariga bog‘liq. Vokal mahoratiga o‘quvchining turish holati, nafas olishi, tovush hosil qilishi va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi kiradi. Xor ijrochiligi mahorati ovozni sozlab ansambl bo‘lib birgalikda kuylashdan iborat.

O‘quvchilar xor asarini tik turgan holda ijro etishi mumkin. Lekin uzoq davom etuvchi repititsiya jarayonlarida jamoa o‘tirgan holda mashg‘ulot o‘tkazishi mumkin. Bunday hollarda xorning har bir xonandasini to‘g‘ri va erkin tutishi, yelkalari tik, qo‘llari pastga tushirilgan bo‘lishi shart.

Yuz, bo‘yin, yelka mushaklari erkin holatda bo‘ladi. Ijro vaqtida boshni orqaga tashlamasdan to‘g‘ri tutish, yuzni burishtirmaslik, pastki jagni siqmaslik zarur. O‘quvchining to‘g‘ri turish holati, to‘g‘ri nafas olishi, uning to‘g‘ri tovush hosil qilishga imkon yaratadi.

O‘tirib qo‘shiq kuylash holatida bosh hamda gavdani to‘g‘ri va erkin tutilishi, oyoqlari yerga to‘g‘ri burchak qilib bosish, qo‘llarni esa tizzalarga erkin qo‘yish lozim. Agar gavda bo‘sh, bel egilgan holatida bo‘lsa, ovoz kuchsiz, yoqimsiz chiqadi. Shuning uchun bo‘yinni, boshni bemalol erkin tutish kerak. Halqum va pastki jag‘ni siqmaslik, bosh erkin to‘g‘ri turishi kerak. Yuzda zo‘riqish alomatlari sezilmasligi kerak. Umuman, xorda turib kuylash eng qulay holat hisoblanadi. Ba‘zi bir xor jamoa rahbari ovoz apparatini qizdirish jarayonida o‘rindan turib (15-20 daqiqa), qo‘shiq o‘rgatishda o‘tirib va o‘rgatilgan asarni turib kuylashni afzal ko‘radilar.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, mashg‘ulotni boshdan-oyoq tik oyoqda turib o‘tkazish o‘quvchilarni jismoniy toliqtiradi. Mashg‘ulotni o‘tirib o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Faqat yuqorida ko‘rsatmaga rioya qilish juda muhim. O‘quvchilarning to‘g‘ri kuylashini, o‘tirish holatini musiqa o‘qituvchisi doimo nazorat qilib turishi kerak.

Nafas olish. O‘quvchining kuylash vaqtida, tovush hosil qilishda nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi muhim rol o‘ynaydi. “Kuylash san’ati nafasni to‘g‘ri ishga solish san’atidir” - degan ibora klassik ibora bo‘lib qoldi. Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma’lum darajada farq mavjud. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmda ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Qo‘shiq kylash vaqtidagi nafas olish tez, qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘lib, nafas chiqarish esa bir qancha vaqtga cho‘ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar xarakteriga qarab o‘zgarib turadi. Qo‘shiq kuylashda fiziologik nafasga qaraganda chuqur nafas olinadi. Kuylashdagi nafas olishning bir necha turlari bor:

1. pastki qovurg‘alar kengayuvchi nafas olish;
2. yelka kengayuvchi nafas olish;
3. qorin bilan nafas olish (diafragma pastga tushadi)
4. ko‘krak bilan nafas olish (ko‘krak qafasining yuqori qismi ko‘tariladi)

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg‘alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma’quldir. Diafragma odam organizmida ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ini ajratib turadi. Pastki qovurg‘alar va diafragmalar vositasida nafas olish hamda chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi. Bu qiyidagicha sodir bo‘ladi:

O‘quvchi qo‘shiq kuylaganda xuddi gul xidlaganday nafas oladi. Bunda o‘pka kengayib, pastki qovurg‘alarni tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi. Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Yelka va ko‘krakning yuqori qismi bu holda o‘zgarmaydi. Nafas olish chuqur, to‘liq va eng asosiysi, shovqinsiz bo‘lishi kerak. Nafas chiqarish qorin tarang qobig‘ining harakati bilan boshqarilib, xavo yuqoriga yo‘naladi va ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg‘alar hamda diafragma asta-sekin o‘z holatiga qaytadi. Qo‘shiq kuylashda

o‘quvchilarni to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish xorda vokal ustida ishlashning eng zarur qismidir. Nafas olish xorda bir vaqtda sodir bo‘lishi mumkin. Bu holda xor ishtirokchilari baravariga nafas olishlari kerak. Agar musiqa asarlarida uzoq davom etuvchi kuy jumlalari bo‘lsa, xor yoki xor partiyalarini uzluksiz sadolanishini ta‘minlab beruvchi ulama nafas qo‘llaniladi.

Bu olda xonandalar navbatma-navbat nafas oladilar va bu o‘z navbatida qo‘sinq partiyalariga juda extiyotkorlik bilan sezilmas darajada qo‘shilishlarini talab qiladi. Aks holda ansambl birligi buzilishi mumkin. Ba’zi asarlar boshdan oxirigacha ulama nafasda ijro etishni talab qiladi.

Tovush hosil qilish

Yuqorida aytilganidek, tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo‘ladi. Tovush havoning yopiq holatdagi ovoz teshigi orqali o‘tganda ovoz pardalari tebranishi vaqtida yuzaga keladi.

Tovushning paydo bo‘lish vaqtin tovush hujumi deyiladi. Ovoz pardalarining jipsligiga, nafas chiqarishning kuchi hamda xarakteriga qarab tovush hujumi qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi hujum bo‘lishi mumkin. Tovushning yumshoq hujumida ovoz pardalari nafas chiqarish boshlanishi bilan ochiladi.

Chiqayotgan havoning ovoz pardalariga yengil tegib o‘tishi natijasida juda yumshoq, ya’ni egiluvchan tovush hosil bo‘ladi. Tovushning qattiq hujumi nafas chiqarish oldidan ovoz pardalarining zinch yopilishi natijasida hosil bo‘ladi. Nafas olishdan keyingi hujumda esa ovoz pardalari nafas chiqa boshlagandan keyin birikadi va natijada tovushdan oldin nafas chiqarishda unsiz “x” eshitiladi. Qo‘sishmcha tovushlar hisobiga tovush o‘zining sofligini yo‘qotadi. Ovoz pardalari esa bo‘sashib qoladi. Qo‘sinq kuylayotgan o‘quvchilar amalda tovush hujumining hamma tiplarini bilishi kerak. Lekin eng ma’quli yumshoq tovush hujumi hisoblanadi. Bu tipdagi tovush hujumi o‘quvchini erkin, o‘zini zo‘rlamasdan kuylashga va ovoz apparatini uzoq muddatga sog‘lom tutishiga imkon beradi. O‘rni kelgan vaqtda har bir tipdagи tovush hujumini ishlatish mumkin. Misol uchun, kuy orqali nafrat, qo‘rquv, jahl, iztirob kabi tuyg‘ularini ifodalashda katta hujumli tovushdan, kuchsizlik, darmonsizlik, qo‘rqaqlik va boshqa shunga o‘xshash tuyg‘ularni ifodalashda esa nafas olishdan keyingi hujumli tovushdan foydalaniadi. Qo‘sinq kuylaganda o‘quvchining ovozi yuzaga kelishidan boshlab hujum tipidan qat’iy nazar o‘zining aniq balandligiga, kuchiga, tembriga, aniq unli shakliga ega bo‘lishi kerak. Bu shartlar tovush hosil qilishning asosiy qoidasi bo‘lib, xor ijrochiligidagi alohida ahamiyatga ega. Xalq xonandalari odatda ochiq (ko‘krakdan) tovush hosil qilish usulini qo‘llaydilar. Bunda tovush aniq chegaraga ega bo‘lmasa-da ijrochiligi uchun bir xil uslub tanlanishi kerak. Agar akademik ijrodogi xorning bir qismi ochiq tovush bilan kuylasa ansambl buzilishi mumkin.

Xor ijrochiligidida tovush hosil qilish

Xor ijrochiligidida tovush yo‘nalishining ***legato***, ***nonlegato***, ***staccato*** turlari ishlatiladi. ***Legato*** tovushlarining bir-biri bilan uzluksiz bog‘langan harakati bo‘lib, har bir tovush keyingisiga osoyishta va aniq harakatda o‘tishi kerak. Berilgan asarlarni Legato qilib ijro etishga misol tariqasida rus xalq lirik qo‘sishqlarini eslatish mumkin. Portamento (portamento) turdagи tovush yo‘nalishida tovushlar bir-biriga sirgalib o‘tadi. Bu kamchilik tajribasiz ijrochilarga xos bo‘lib xorda ishlatish mumkin emas. Chunki u tovush intonatsiyasida noaniqliklarga olib keladi. Stakkato (stakkato) - tovushlarni vaqt oralab alohida-alohida ijro etish. Stakkato tovushlari oralig‘ida nafas olinmaydi. Stakkato tovushlari yo‘nalishida xonanda ovozi yengil, erkin va qisqa eshitiladi.

Non legato - tovushlarni aniq va bir-biridan ajralgan holda ijro etish turi bo‘lib tovushlar orasida nafasni ushslash orqali hosil qilinadi. Tovush yo‘nalishining bu turi ***slakkato va legato*** turlarining oralig‘idagi o‘rinni egallagan bo‘lib, ularning har biriga o‘xshash tomonlari bor.



Bolalar xor jamoasi. Xor ijrochiligidagi nutq talaffuzi

Xor ijrochiligidagi xonandalarni to‘g‘ri diktsiya (lotincha “diction” - nutq talaffuzi), ya’ni adabiy tekstni aniq va ravon talaffuz qilish talab qilinadi. Tovush o‘rnining to‘g‘riligi va nafas faolligi diktsiyaga bog‘liq. Tantanavor, qahramonlik, dramatik xarakterdagi asarlarlar esa mayin talaffuzga mos keladi. Yomon diktsiya xor quyi ifodaviyligi va mazmunini susaytiradi. Xor diktsiyasi nutq organlarining ishlash qobiliyatiga, ya’ni til, lablar, yumshoq tanglay, pastki jag‘dan iborat artikulyatsiya apparatining ishlash qobiliyatiga bog‘liq. Faol harakatchan artikulyatsiya vokal texnikasining asosiy elementlari hisoblanadi. Artikulyatsiya apparati sog‘lom, to‘g‘ri joylashgan va o‘z vazifasini to‘g‘ri bajara oladigan bo‘lishi kerak. Artikulyatsiya apparatining kamchiliklari maxsus mashqlar orqali bartaraf qilinishi mumkin. Bunday kamchiliklarga ayrim harflarni almashtirib noto‘g‘ri talaffuz qilish kiradi. Bu kamchiliklar artikulyatsiya apparatining (ayniqsa o‘quvchilarda) sust harakat qilishi natijasida sodir bo‘ladi. Vokal nutqi ifodali va jonli bo‘lishi muhim. Ayrim unli tovushlar xonanda ovozi sadosi cho‘ziqligi, kuchi hamda rang-barangligini ta‘minlasa, undosh tovushlar esa asarning badiiy matni mazmunini tushunarli va emotsiional qilib ifodalashga imkon beradi.

Asarni xor bilan tayyorlash jarayonida musiqa bilan bir vaqtida so‘z matni ustida ham ish yuritish kerak. Asar mazmunini chuqur anglash, asosiy g‘oyasini yuzaga chiqarish hamda ularni aniq va ravon diktsiya orqali tinglovchilarga ifodali qilib yetkazish bilan bog‘liq bo‘lib, asarni xor bo‘lib badiiy ijro etishning zaruriy shartlaridan biridir.

Ansambl

Ansambl so‘zi frantsuzcha so‘zdan olingen bo‘lib, u birgalikda degan ma’noni bildiradi. Ansambl musiqada, baletda arxitekturada qo‘llaniladi. Xor san‘atida ansambl barcha xonandalarning xor partiyalarini birgalikdagi muvozanatlari sadolanishidir. Bu demak, har bir xonanda faqat o‘z partiyasining emas, balki butun xorni eshitma bilishi va shu bilan birga o‘z ovozini umumiy sadoga qo‘sha bilishi kerak.

Xor ijrochiligidagi badiiy ansambl turli ansambllarning kuylashidan tashkil topadi, jumladan;

- ❖ ritmik ansambl - ijroning ritmik birligi;
- ❖ dinamik ansambl - sadolanish kuchiga ko‘ra ovozlarning qo‘shilishi;
- ❖ membr ansambl - ovozlarning tembriga ko‘ra qo‘shilishi;
- ❖ sur’at ansambl - ijroning sur’at birligi;
- ❖ garmonik ansambl - ovozlarning akkord, hamohanglikdagi muvozanatlari sadosi;
- ❖ diktsiyali ansambl - adabiy tekst (matnni) kelishib talaffuz etish;
- ❖ intonatsiyali ansambl-tovush balandligini aniq sadolantirish;

Yuqorida ko‘rsatilgan ansambllardan birining buzilishi xor sadolanishining buzilishiga olib keladi. Yagona badiiy-ijrochilik ansambliga erishish, xormeysterning eng qiyin vazifalaridan biridir.

2.4. Musiqa idroki va tinglash madaniyatini shakllantirish uslublari

Musiqa insonning his-tuyg‘ularini ifodalash bilan birga hayot, voqelik va davr aksidir. Shu boisdan musiqa dasturi printsiplarida bosh mezon - “Musiqa va hayotdir”. Musiqa pedagogikasi olimlarining ta’kidlashicha - “Musiqani o‘rganish jarayonida o‘quvchilar birinchi darsdanoq unda hayot aks ettirilganligini, u orqali hayotni o‘rganishlarini osonlikcha his etadilar va tushunadilar”.

O‘quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma’lum voqelik, his-tuyg‘u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuncha beriladi. Bu faqatgina dars jarayonida turli musiqa faoliyatlarini bajarishda asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshadi. Zotan, bir darsda qaysi musiqa faoliyatini olmaylik, u avval musiqa yangrashini idrok etish va uning obrazi hamda xarakterlarini fahmlagandan so‘ng ijobjiy tarzda amalga oshiriladi. Demak, musiqa idroki dars jarayonining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois musiqani eshitish, undan zavqlanish, qo‘sish kuylash, musiqa savodxonligiga doir xususiyatlarni anglab olish, raqsga tushmanish, musiqa sadosi ostida turli ritmik harakatlarni bajarish, chapak chalish va cholg‘u asboblarida chalib musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish uchun belgilangan musiqlarni idrok etib borish kabi faoliyatlarini bajarish mumkin. Musiqa idroki darsda ikki tarzda - musiqa asarlarini maxsus eshitish (musiqa tinglash) va musiqani eshitib, anglab uning xarakteriga muvofiq turli faoliyatlarini amalda bajarish.

Bugungi kun zamonaviy musiqa madaniyati darsida musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o‘ynaydi. U ikki holatda amalga oshiriladi:

1. ma’lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy-pedagogik tahlil etiladi. Eshitish orqali asarni tushunish hamda ongi idrok etish asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) va badiiy mazmuni haqida ma’lum bilimlarga ega bo‘lish.
2. musiqa asarları o‘quvchilar tomonidan diqqat bilan tinglanib (idrok etilib), so‘ng u yoki bu faoliyati ko‘proq kuylash orqali o‘rganiladi. Uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi. Masalan, o‘rganiladigan qo‘sish avval o‘qituvchi ijrosida (CD orqali ham) bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so‘ng o‘rganishga kirishiladi. Raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so‘ng, raqs harakatlari ifodasi o‘rganiladi. Ko‘pincha asar bir necha faoliyat uyg‘unligida (tinglash, kuylash, raqs harakati va boshqa) o‘rganiladi. Bunday mashg‘ulot usuli asarni puxta o‘rganish va ayni damda kompleks malakalarining rivojlanishi uchun imkon yaratadi.

Musiqa madaniyati darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o‘zaro bog‘lanadi. Buning natijasida darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqa savodxonligi barcha faoliyatlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat turi (tinglash, kuylash, raqs va boshqa) qo‘llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o‘rganiladi va xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va hokazo) haqida yangi tushunchalar hosil bo‘ladi.

Shu bois, musiqa savodxonligi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning umumiyligi musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiyligi bilim tushunchalar majmuasi (musiqa shakllari, janrlari, cholg‘uchilar ijrochiligi, xalq bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqanining mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi) va boshqalarni singdirib borishdan iborat.

Shuni alohida e’tiborga olmoq zarurki, musiqa idroki va musiqa savodxonligi faoliyatlarini o‘zaro uzviy bog‘lanishi bilan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi.

Kuylash faoliyati o‘quvchilarning musiqa-o‘quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchilar o‘z ovoz ijrosini boshqaradi, o‘rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo‘r bo‘lib kuylashga intiladi.

Zotan, tinglash va kuylash o‘quv materiallari ta’lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatları vositasida o‘rganish bilan birga, cholg‘uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatları bilan ham har tomonlama o‘zlashtirish hamda musiqiy tavsiflarini ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

Chorak mavzusidan kelib chiqib, asarning musiqaviy tuzilishi, xarakteri, ifoda vositalari, hayotdagi o‘rni jihatidan o‘rganib musiqa tinglash faoliyati quyidagi bosqichlarda amalgalash oshiriladi:

1. Asarni tinglashda o‘quvchilar diqqatini jamlash va asar haqida o‘qituvchining kirish so‘zi.
2. O‘qituvchi ijrosida yoki MP3 yozuvida asarni tinglashni tashkil etish.
3. Asarni suhbat yo‘li bilan musiqiy-badiiy jihatdan oddiy tahlil etish.
4. Asarni butunligicha qayta takror tinglash. So‘ng asar haqida o‘quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o‘tkazish.

Mazkur ishlar jarayonida o‘quvchilarda musiqa haqida bilim va tushunchalar, malaka, ko‘nikma hamda umumlashgan badiiy taassurotlar, tajribalar hosil bo‘lib boradi. Tahlil davomida musiqaning tuzilishiga doir o‘rganiladigan yangi atamalar (ijro sur’ati, xarakteri, ifoda vositalari, ijrochilari, cholg‘u asboblari turlari, asar bastakorlari va boshqa) o‘rganilib keyingi darslarda qo‘llanilib boriladi. O‘qituvchi tomonidan o‘rganilgan asar yil davomida vaqtiga vaqtiga bilan tinglanadi.

Shuni ham inobatga olish joizki, olti-yetti yoshli o‘quvchilarning diqqat-e’tibori hali barqaror darajada emasligi tufayli ular faqat qisqa muddatli asarni to‘laligicha idrok etadilar, xolos. Shuning uchun dastur va qo‘llanma mazmuni kichik asar va ixcham kuy-qo‘sishlardan boshlanadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga musiqani diqqat va mehr bilan tinglasalargina uni aniq idrok etish mumkinligini tushuntirish va o‘quvchilarda musiqa shinavandaligini tarbiyalab borishdan iboratdir.

Davlat ta’lim standartiga asosan, musiqa madaniyati o‘quv fanining musiqa tinglash mazmuniga bo‘lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyat majmuasidan tashkil topib, o‘quvchilarning musiqa tinglash bo‘yicha quyidagi mezonga javob berishi lozim:

- ⊕ yakkanavoz va jo‘rnavorzlikni bir-biridan ajrata bilish;
- ⊕ ansambl va orkestr ijrosini farqlay oliish;
- ⊕ ovozlar va sozlar tembrini ajrata olish;
- ⊕ musiqiy did hamda idrokni rivojlantirish;
- ⊕ o‘zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash va boshqalar.

Shunday qilib, musiqa madaniyati darsida musiqa tinglash faoliyati – o‘quvchilar ma’naviy va musiqiy madaniyatini shakllantirishning asosiy omili sifatida muhim ahamiyatga egadir. Shunga ko‘ra o‘rta umumta’lim maktabining musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarga musiqa tinglash xususiyatlari, o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun nihoyatda muhimligini chuqur anglab, musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish bosqichlarini metodik jihatdan puxta, samarali tashkil etib, ularini amalga oshirishda, umuman musiqiy faoliyatni pedagogik boshqarishga jiddiy e’tibor berishi lozim.

2.5. Musiqiy ritmik faoliyatlarni shakllantirish uslubi

Maktab o‘quvchilarining aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishida raqs, musiqali o‘yin hamda musiqa bilan harakatlar bajarish katta ahamiyatga ega. Musiqiy faoliyatning bu turlari bolaning har tomonlama o‘sishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi:

Birinchidan, uning musiqiy o‘quvi, ayniqsa ritm tuyg‘usi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi. Chunki, har qanday harakat turi musiqa ritmi ostida bajariladi. Harakat bilan bog‘liq bo‘lgan musiqa ohanglari o‘quvchilar xotirasida to‘rg‘un saqlanadi.

Ikkinchidan, yuqorida aytganimizdek, raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlikni, chaqqonlikni rivojlantirib badanni chiniqtiradi, o‘quvchilar qomatini to‘g‘ri o‘sishiga katta yordam beradi.

Uchinchidan, musiqa asarlari o‘quvchilarda turlicha emotsiyal hislar uygotadi, turlicha kayfiyatlar hosil etib, uning ongida o‘ziga xos obrazlar yaratadiki, bular bolaga harakat sxemalarini badiiy ishoralar bilan ifodalashga yordam beradi.

Demak, musiqa bilan bajarilgan harakat, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish o‘quvchilarining aqliy va estetik qobiliyatini hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega ekan. Musiqa, raqs va o‘yinlar kichik yoshli o‘quvchilarga tez ta’sir etadi. Shuning uchun quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o‘yinlar har bir bolaning e’tiborini o‘ziga tortadi. Binobarin, musiqa madaniyati darsi davomida o‘quvchilarining musiqiy ritmik harakatlari faoliyatini amalga oshirishning muhimligi ham ahamiyatli ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalqi milliy raqs san’ati bilan olamga dong taratgan. Ammo maktab ta’lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog‘i deyarli yo‘q darajada ekanligini nazarda tutsak, unda musiqa madaniyati darsi mazmunida milliy raqs usullarini o‘quvchilarga yoshligidan o‘rgatib borish naqadar zarurligi ma’lum bo‘ladi. Shu bois, musiqa o‘qituvchisi milliy raqs san’atimizning oddiy harakatlarini bilishi (ijro eta olishi) va darsda qo’llash usullarini puxta bilishi bugungi davr talabidir.

Raqs va musiqali harakatlar o‘quvchilarining musiqiy-o‘quv qobiliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. O‘quvchilarining ritm tuyg‘ulari musiqa bilan bajariladigan turli xil harakatlar- raqs, o‘yin kabi turlicha ifodali harakatlar elementlarini o‘zida mujassamlashtirgandir. Har qanday harakat turini yangrayotgan musiqani his etib, uning ritm, takt va jumlalariga e’tibor berib, mantiqiy harakat kompleksini yaratib ijro etishga katta ahamiyat berish lozim. Dasturda boshlang‘ich sind musiqa madaniyati darsida raqs va musiqali harakatlarga alohida o‘rin berilgan. Zero, bu faoliyat o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarini, xususan, ritm-usul tuyg‘usi hamda asar badiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham zarurdir.

1-sinfda o‘quvchilar darsning ritmik harakatlarini bajarish, raqs tushish qismida musiqiy tovushlarning baland va pastligini qo‘l harakati (yuqoriga ko‘tarish va pastga tushirish) orqali ifodalashadi. Aytim mashqlari, “Andijon polkasi”, “Chittigul”, “Pianino” kuylari asosida marsh musiqasiga qadam tashlash (F.Nazarovning “Marsh”, “Asp bo‘laman”, “Bahor keladi”) kabi kuylarga raqsga tushishadi. Shuningdek “Ufori”, “Duchava” singari kuylarga mos harakatlarni bajarishadi. To‘rtinchi chorakka kelib, sind aytimiga dirijyorlik qilib, (“O‘quvchilar va g‘ozlar”) boshqarishni mashq qilishadi.

2-sinf davomida o‘quvchilar mazkur faoliyat bo‘yicha bir joyda turib, musiqaga mos harakatlarni bajarish, marsh musiqasiga mos qadam tashlash (“Usmoniya”, “Qari navo”, “Marsh”) va qo‘l bilan raqs kuylariga xos ifodali harakatlar bajarish “Oftobjon-o‘rtoqjon” kuyi, musiqa tavsiflariga mos raqs harakatlari (“Olmani otdim”, “Fabrika”) musiqali o‘yin ifodalarini (“Inoq o‘ynaymiz”) bajarish amalga oshiriladi.

3-sinfda esa o‘quvchilar musiqalarga mos raqs harakatlarini topib, raqsga tushish (“Olmani otdim”, “Jonon” va boshqa raqsona kuylarga) harakatlari bajariladi.

Darsning ushbu faoliyat turini o‘tkazishda musiqiy cholg‘u asboblaridan unumli foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Xususan milliy raqlarni, masalan, “Chertmak”, “Ufor”, “Andijon polkasi”, “Jonon” va boshqalarni o‘rgatishda xalq cholg‘u asboblaridan foydalanishda birinchidan o‘quvchilarida katta qiziqish uyg‘otadi. Xalq cholg‘u asboblaridan unumli foydalanish, o‘quvchilarida tembr o‘quvi yaxshi rivojlanadi, ikkinchidan o‘quvchilar milliy musiqa asboblari bilan tanishib boradilar.

Musiqa madaniyati darsida musiqiy ritmik harakatlarini bajarish faoliyati o‘quvchilar ritmik tuyg‘ularini rivojlantiradi Zotan, raqs va o‘yin ham turlicha ifodali harakatlar elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Har qanday harakat turlicha yangrayotgan musiqani his etib, uning ritm, takt va jumlalariga e’tibor berib, mantiqiy harakatlar majmuuni yaratib ijro etishga alohida ahamiyat berish lozim hisoblanadi. Marsh ostida o‘quvchilar harakat qilishlarida musiqa sabog‘i bilan birgalikda oyoq tashlab yurishga o‘quvchilarini o‘rgatib borish lozim.



Bolalar tomonidan ijro etilgan raqs

Xullas, musiqali o‘yinlar o‘z maqsadi va vazifasiga ko‘ra didaktik o‘yinlarga mansub bo‘lib, ular asosan harakat vositasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Musiqi darsi davomida o‘qituvchi musiqa asarining tuzilishiga binoan harakat elementlari mujassamlangan raqlarga, ularni o‘rgatishga alohida e’tibor berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, ikki qisqli musiqaga mos ikki qisqli, uch qismligiga xos tarzda uch qisqli raqlar qo‘yish kerak bo‘ladi. Misol uchun o‘zbek xalq raqsi “Andijon polkasi”ni olaylik. O‘qituvchi mazkur musiqani o‘rgatishda, o‘quvchilarga mos chaqqon harakatlarga xos raqs shaklini tanlashi mumkin. O‘qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olib, “Andijon polkasi”ni bir oz qisqartirib katta avjini istisno qilgan holda ikki qisqli to‘la shaklda chalib, uch qisqli qilib ham o‘rgatishi mumkin. Demak, raqsni musiqaning mantiqiy qismlariga ko‘ra harakat elementlarini tanlab qo‘yishiga to‘g‘ri keladi.

O‘yin va raqlar o‘rgatishda mashq katta yordam beradi. Zero, har qanday raqs va o‘yinlar aniq detallardan tashkil topgan bo‘ladi. Shuning uchun ba’zi o‘yin va raqlarni o‘rgatishdan avval ular tarkibidagi ayrim harakat elementlarini oldindan mashq sifatida o‘rgatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Raqs va o‘yinlar qo‘yishda o‘quvchilar ijodiga ham e’tibor berish shart. Ma’lumki, o‘quvchilar kattalarga taxlid qiladilar va ko‘pincha o‘qituvchilar tomonidan o‘rgatiladigan o‘yin va raqlarni uning shaxsiy ijodi, deb ham tushunadilar. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘qituvchiga taxliddan o‘zları ham “yangi” raqlar yaratishga intiladilar. Sinf o‘quvchilari orasida raqs tushishga moyil o‘quvchilar, iqtidorlilar ham uchraydi, albatta. O‘qituvchi ushbu faoliyatni boshqarishda shunday o‘quvchilar raqsidan namuna sifatida foydalanishi mumkin.

Shunday qilib, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish musiqa madaniyati darsida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, darsning ushbu faoliyat turiga hamisha ham yetarli e’tibor berilavermaydi. Natijada dars elementlari, faoliyatlar majmui to‘liq bo‘lmay, mashg‘ulotlarda qo‘yilgan maqsadlarga yetishish qiyinlashadi va bu o‘z o‘rnida darslarning zerikarli, passiv o‘tilishiga olib keladi.

Zamonaviy musiqa madaniyati darsida boshqa faoliyatlar qatori o‘quvchilarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish elementlariga ham alohida e’tibor berilishini, uni har tomonlama mazmunli va qiziqarli, samarali o‘tkazishga erishish muhimligini to‘g‘ri anglash, musiqa o‘qituvchisi hamda shu sohaning bo‘lajak mutaxassislari uchun juda muhimdir.

2.6. O‘quvchilar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatini shaklantirish

O‘quvchi-yoshlarning musiqiy madaniyatini tarbiyalashda musiqiy faoliatlarning o‘rni benihoya katta hisoblanadi. Musiqa darsi jarayonida imkon qadar ko‘proq musiqiy faoliyatlardan unumli foydalanish orqali o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Ma’lumki, musiqa madaniyati darsida ko‘pgina musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

O‘quvchilar musiqa cholg‘u asboblarida chalish - boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoaviy ijrochilik faoliyati turlaridan biridir. Musiqa darsida faoliyatning ushbu turidan foydalanish – bola musiqiy qibiliyatlarini rivojlantirish, kichik yoshdagi o‘quvchilar badiiy bilim va tajribasini boyitish, ularning ijrochilik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishga qaratiladi. Bunda o‘quvchilarni musiqiy ijrochiligidagi emotsiyonal munosabatni tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Faoliatlarda faol ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars mazmunini qiziqarli bo‘lishi va ta’lim samaradorligini sizilarli darajada oshirish maqsadida ham raqs, musiqiy-ritmik harakatlar, chapak va o‘quvchilar cholg‘u asboblarida (ayniqsa, doiracha, qoshiq, qayroq va boshqalarda) chalib, musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqiy faoliyatlar qo‘llaniladi.

O‘quvchilar cholg‘u asboblarida chalish faoliyati boshlangich sinflarda milliy cholg‘u asboblari bilan tanishish va ularning tovush tuslarini anglab olish bilan uzviy bog‘lanib amalga oshirilishi zarurdir. Bunda doirachilar, qayroq, qoshiq, kichik safoillar kabi urma cholg‘u asboblaridan foydalanib, o‘qituvchi ijrosi va magnitafon tasmasi orqali taraladigan kuylarga ritmik jo‘r bo‘lish malakalari rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati mashg‘ulotlarida o‘quvchilar musiqa cholg‘u asboblarida ijro etish faoliyatining kiritilishi quyidagi pedagogik vazifalarni hal etishga qaratiladi:

- ⊕ o‘quvchilarning musiqa darsida, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, bayramlarda, oilada, dam olish vaqtarida ijrochilik faoliyatlarini amalga oshirishga ruhlantirib borish;
- ⊕ o‘quvchilarda badiiy did, qiziqish, musiqiy ehtiyojni shakllantirish;
- ⊕ ansamblida, bahamjihat bo‘lib ijro etish jarayoniga qiziqishni shakllantirish va tarbiyalash, musiqiy cholg‘ularning tembr (tovush tusi), tovush xususiyati, imkoniyatlarini bilib olish, birgalikda ijro garmoniyasini his etishga o‘rgatish;
- ⊕ ladni anglash, ritm tuyg‘usini, musiqa shakli, garmonik va melodik xususiyatlarini his etishni faollashtirish;
- ⊕ musiqiy nutq, ifoda vositalari xususidagi tasavvurlarni shakllantirish va boshqalar.

Musiqa darsida o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda repertuar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi sinfda- cholg‘uchilik, raqs va musiqiy harakatlar faoliyatida o‘quvchilar musiqa tovushlarining baland, pastligini qo‘l harakatlari bilan ifodalash chapak va shiqildoqlar chalib, o‘qituvchi ijrosiga ritmik jo‘r bo‘lish (“Asp bo‘laman”, “Bahor keladi” va boshq. misoldida), “Yallama yorim”, «Duchava» kuylariga chapak va cholg‘ularda chalib kuylarga ritmik jo‘r bo‘lishadi.

Ikkinci sinfda ohanglarga uchburchak, doyrachalar, shiqildoqlar yordamida musiqa ijrosida ritmik jo‘r bo‘lish, qattiq va yumshoq urg‘ularni belgilash, “Oftob chiqdi olamga”, “Oftobjonim-o‘rtoqjon” kabi qo‘sishlarga chapakda va o‘quvchilar cholg‘u asboblarida ritmik jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlar bajariladi.

Uchinchi sinfda o‘quvchilar doirachilar, shiqildoqlar, qoshiq va boshqa urma cholg‘u asboblarida chalib, musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish (“Olmani otdim”, “Jonon”) va boshqa kuylarga jo‘r bo‘lib amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Shunisi muhimki, musiqiy asarlar o‘quvchilarning birgalikda ijro etishlari uchun qulay bo‘lishi, o‘quvchilarda ijodiy fazilatlarni shakllantirishda xizmat qilmog‘i lozim.

O‘quvchilar musiqa cholg‘u asboblarida ijro etish, ayniqsa musiqiy ijodiy rivojlanishi past o‘quvchilar uchun nihoyatda foydalidir. Shuningdek, barcha o‘quvchilarning kelajakda ancha murakkab cholg‘u asboblarini o‘zlashtirishlariga yaxshi tayyorgarlik vazifasini o‘taydi.

Mashg‘ulotlardagi o‘quvchilar cholg‘u asboblarida chalish faoliyatini samarali amalga oshirish natijasida o‘quvchilar quyidagi bilim malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari nazarda tutiladi:

- musiqa cholg‘u asboblari nomlari, tuzilishi, ularni asrash qoida-tartiblarini bilish;
- musiqa tinglash orqali cholg‘u asboblari tovush tusini, jarangdorligini aniqlay olish;
- musiqa cholg‘u asboblarida chalish uslublari haqida malakalarga ega bo‘lish;
- cholg‘u asboblarda yangraydigan musiqiy tovushlar tusini, ifodaviy xususiyatlarini ilg‘ay olish;
- musiqiy ifoda vositalarini bilish, musiqa cholg‘ularida chalishda ularni ifodalay olish;
- jamoa (ansambl) bo‘lib qo‘sish ijro etish malakalarini egallab olish, oson va tanish kuylarni eshitish orqali cholg‘uda ijro eta olish, o‘rtoqlari ijrosini munosib baholay olish;
- cholg‘u asboblaridan chiqadigan baland va past tovushlar yangrashini farqlay olish, pardalar nomi, ularning joylashish o‘rnini bilish va h.k.

Darsda ishning natijasi asosan cholg‘ulashadirish jarayoni bilan bog‘liqdir. Shu bois, jamoa bo‘lib ijro etish talablarini hisobga olish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan oddiy musiqa cholg‘u asboblaridan (uchburchak, doyrachalar, qayroq, shiqildoq kabi) keng samarali foydalaniladi. Barcha cholg‘ular toza, tiniq, yoqimli sado berishi, tashqi ko‘rinishi bilan o‘quvchilarning diqqatini jalb etishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Demak, chapak chalish va musiqa cholg‘u asboblarida chalish faoliyati ham raqs, musiqali harakatlar singari o‘quvchilarning musiqiy-o‘quv qobiliyatları hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat yuqorida ta’kidlanganidek, boshlang‘ich sinflarda milliy cholg‘u asboblar bilan tanishish hamda ularning tovush tuslarini anglab olish bilan uzviy bog‘lanib amalga oshirilishi juda zarur. Bunda doyrachalar, qayroq, qoshiq, kichik safoillar kabi urib chalinadigan cholg‘u asboblaridan foydalanib, o‘qituvchi ijrosi va CD diskı orqali taraladigan MP3 ga mos ritmik jo‘r bo‘lish malakaları rivojlantiriladi. Shu bois, musiqa madaniyati darsida faoliyatlarning boshqa turlari qatori o‘quvchilar cholg‘u asboblarida chalish qismiga ham jiddiy e’tibor berish talab etiladi. Zero, darsda musiqiy faoliyatlar mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil etishi muhimligi musiqiy ta’lim talabidir.

II-BOB yuzasidan nazorat savollari:

1. Musiqa ta’limining maqsadi, vazifasi va mazmuni nimadan iborat?
2. Musiqa darsiga qo‘yilgan talablar nimalardan iborat?
3. Musiqa darsida musiqa savodxonligining o‘rgatish metodikasi nimalardan iborat?
4. Vokal-xor ijrochiligi madaniyatini shakllantirish texnologiyalari haqida gapirib bering?
5. Xor ijrochiligida tovush qanday hosil qilinadi?
6. Ansambl va xorning bir-biridan farqi?
7. Musiqa darsida musiqa idroki va tinglash madaniyatini shakllantirishda qanday texnologiyalardan foydalaniladi?
8. Musiqiy ritmik faoliyatları musiqa darsida qanday shakillantiriladi?
9. O‘quvchilar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatini shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratishi lozim?

III BOB. MUSIQA DARSIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

3.1. Musiqiy ta’limning tamoyillari

Didaktika ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, “didayko” - o‘qitish. “didaskoya” – o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan. “Didaktika”ning so‘zma-so‘z tarjimasi ta’lim nazariyasini anglatadi. Ta’lim nazariyasi tal’im jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta’lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy shakllarini o‘z ichiga oladi. Didaktika o‘z oldiga o‘qitishning o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo‘yadi. Ta’limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Demak, didaktika “nimaga o‘qitish”. “nimani o‘qitish” va “qanday o‘qitish” kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o‘z navbatida, ayrim o‘quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog‘lanadi. Shu usullar ma’lumotiga tayanib, o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi va ayni vaqtida har bir o‘quv fanini o‘qitish usullari uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Musiqaviy didaktika, uning birlashtiruvchi vazifasi hamda uning xususiy didaktikalari va musiqiy ta’limning mavzuli metodikasi bilan bog‘liqdir.

Musiqaviy didaktikaning asosiy kategoriyalari:

1. Musiqiy ta’limning jarayoni, prinsiplari, mazmuni, usullari, shakllari. Musiqiy ta’lim mazmuni umumiy madaniyatining rivojlanishiga va jamiyatning musiqa san’atiga bo‘lgan ehtiyojiga bog‘liq. Shuning uchun musiqiy ta’lim mazmuniga kiruvchi musiqiy bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar, musiqa materiali, ta’lim usullari va shakllarini tizimlashtirish lozim. Musiqa sabog‘i tarbiyalanuvchi shaxsnинг badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta’lim sifatida muhimdir. Uning vositasida nafosat tuyg‘ularini tarbiyalash bilan birga yosh avlodga oliy insoniy fazilatlar tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda milliy va umumbashariy musiqa ta’limshunosligi hamda o‘qitish uslubiyotiga tayanish lozim. Musiqa ta’lim tarbiyasi mazmunida esa milliy musiqa merosimiz asosiy o‘rin tutadi. Milliy musiqamiz qonuniyatlariga qiyoslab, o‘zga xalqlar musiqa madaniyati bilan tanishish, ya’ni “ta’limda umuminsoniy va milliy - madaniy qadriyatlarning ustuvorligi”ga amal qilish musiqa o‘qitishning muhim didaktik yo‘nalishi hisoblanadi.

2. Musiqa ta’lim-tarbiyasining maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga qila oladigan hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o‘quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san’atiga mehr ishtyoqini oshirish, musiqadan bilim va amaliy malakalar doiralarini tarkib toptirish, iqtidorli o‘quvchilarni musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, mакtab musiqa ta’lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish-musiqa faniga jamiyatni madaniy - ahloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini hal etishda tajribali o‘qituvchilar ijodkorligiga tayanish, musiqa o‘qitish uslubiyotini ilgor tajribalar va kompleks ilmiy-metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirish talab etiladi.

Ta’lim jarayoni ikki shaklda - dars va sinfdan tashqari musiqiy mashg‘ulotiar tarzida amalga oshiriladi. O‘qitishning asosiy va barcha o‘quvchilar uchun zaruriy shakli musiqa darsidir. Shu bois dars tuzilishlari va o‘qitish usullarining xilma-xil shakl va turlarini qo‘llash hamda tajriba jarayonida darsning yangi usul va tuzilmalarini kashf etish dolzarb masala bo‘lib turadi. Bundan ko‘proq Sharq va milliy musiqa ta’limshunosligini o‘rganish va undan unumli foydalanish muhimdir.

3. Ta’lim prinsiplari jamiyat ijtimoiy extiyojlaridan kelib chiqib pedagogika nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga ko‘ra o‘zgarib takomillashtib boradi. Tarixda ta’lim prinsiplarini aniqlash bo‘yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo‘lgan. Masalan: XVI asrda Ya. A. Komenskiy ta’lim prinsiplarini tabiatga qiyoslab o‘rganishni ya’ni o‘quvchilarga tabiat quynida bevosita ta’lim

berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa, ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taklif etadi. XVII-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish prinsiplari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik prinsipi, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi, ta'limda muntazamlilik va davomiylilik prinsipi, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina prinsiplari mavjud. Musiqa darsi pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari, ta'lim amaliyotining umumlashma nazariyasi asosida tuziladi.

Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materialllarini qo'llash, musiqa darsini mazmunini va darsning tizimidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi va bir necha turga bo'linadi:

- 1. Musiqa darsida bilim va malakalarining mustahkamligi,**
- 2. Musiqa ta'lim va tarbiyasida ilmiylik, sistemalash va davomiylilik,**
- 3. Darsda o'quvchilarning ongliligi va faolliligi,**
- 4. Musiqa darsida ko'rgazmalilik.**

O'quv materiallarining o'quvchilar bilim - malakalariga va yosh xususiyatlariga mosligi, rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Ta'lim mazmunini o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quv mazmuniga faqat ilmiy asoslangan, tajribada tasdiqlangan, o'quv musiqa fani va musiqa fanining mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan ilmiylik prinsipini qo'llash darkor. Nazariy bilimlarning amaldagi qo'llanilishi va u bilimlarning amaliy bilimlar bilan bog'liqligi har bir o'qituvchining axborotida sezilib turishi kerak. Musiqa fani bo'yicha yangiliklari doimo izohlanib borilishi darkor. Bevosita dars davomida ilmiylik prinsipi faqat ilmiy axborotni berish bilan chegaralanmaydi. Axborot, ilmiy manbalarning qayerdan kelib chiqqanligi sabab, natijalarning tahliliy, tarixiylik prinsipini qo'llash ham ilmiylik prinsipini ta'minlaydi. Dars jarayonida o'quv materiallarining o'quvchilarni bilim tajribasiga mosligi, o'quvchilar ovozining rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'gri o'rgatish, asarlarni o'quvchilarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsning ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar tafakkuriga xos va ko'proq o'yin bilan bog'liq bo'lgan tanish qo'shiqlar, kuy va p'esalar o'rgatiladi. O'rta sinflarda esa o'quvchilar hayotiy tajribalari boyigan, aniq fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiyashib borishi tizimlilik prinsipi deyiladi.

Musiqa darsi xorda kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash kabi asosiy musiqiy faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Shu xildagi asosiy faoliyat turlarini darsning mantiqiy yaxlitligidan ajratmagan holda e'tibor beriladi. Bu esa darsdagi barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida uzlucksiz amalga oshirib, darsning har bir faoliyatini o'z navbatida borishi davomiylilik prinsipi deyiladi.

Ta'limda onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to'la tekis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o'zashtirilsa-da, ayrim xollarda shu bilimlarni bevosita qo'llash jarayonida o'quvchilar qiynalishi mumkin. Ba'zan ular oddiy masalalarni yecha olmay qolishadi. Demak, o'quvchi materialni tushunib yetmasdan shunchaki, yodlab olgan. O'quvchilar olgan bilimlarini amaliy hayotda foydalana olishlari uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish kerak. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirishi bilish jarayonini faolligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy estetik zavqlanib idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat-e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va faollikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish, o'z navbatida, badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darsida onglilik va faollik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatlarida ham onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Ta'limda, ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish o'quv-tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida Al Forobiy ko'pgina ibratli so'zlarni aytib qoldirgan. Forobiyning fikriga qaraganda o'quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo'lish mumkin:

Birinchi toifasi – o'quv materialini o'zlar mustaqil o'rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni majburlab, zo'r lab o'qitish kerak, deydi. Va niroyat ikkinchi toifa talabalarga ta'lim berishda ko'rgazmalilikdan foydalanib o'quv mehnatini jadallashtirish va bir munkha osonlashtirish imkoniyati tug'iladi. Ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilinganida eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlaridan ham foydalaniladi.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi-o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki, u qo'li bilan emas balki qulqoq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi. Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi.

Xulosa, qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqa madaniyati darsida muhim ahamiyatga ega bo'lib musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

3.2 Musiqa madaniyati darsida musiqa o'qitish texnologiyalari

Ta'lim metodi bu o'qituvchi va o'quvchining tartibga solingan o'zaro aloqadagi usuli, o'qitish jarayonida ta'lim va rivojlanish masalalarini hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. **Metod (yunoncha atama-aynan nimagadir yo'l)** maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solingan faoliyat. O'qitish metodlari o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyatning tegishli metodlarisiz ta'limning maqsad va vazifalarini o'quv materialining muayyan mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi. Usullar axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim faoliyatini xarakteriga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish - ilyustrativ (informatsion retseptiv) reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot va tadqiqot usullari qo'llanishi mumkin.

Asosiy metodlar guruhlarining har biri o'z navbatida guruhchalar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi o'zlashtirish, qabul qilish, anglash, o'quv informatsiyalarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali qabul qilish melodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va b.), o'quv axborotini ko'rgazmali o'zatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va b.) o'quv axborotini berish va uni tahlil, kinestezik qabul qilish (amaliy metodlari: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va b.) kiradi. Ta'limning og'zaki metodlariga hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu metodlarning qo'llanishida o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglash, eslab qolish va anglash orqali uni faol qabul qiladilar va o'zlashtiradilar.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirot etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirot etadi. Ta'lim oluvchini markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ✚ ta'lim samarasini yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ✚ ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ✚ ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;

- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo’llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Ushbu masala yuzasidan umumiylar mulohazaga keladigan bo‘lsak, bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqa metodlar.
2. Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqa ta’lim strategiyalari. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida, bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.
3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda assosiy fikrlar turli grafik shakkarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida, bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.


Quyida interfaol ta’lim usullarining ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Aqliy hujum” - biror muamoni yechishda guruh qatnashchilarini tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarini to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to‘gri va ijobjiy qo’llanilganda shaxsni erkin, ijobjiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” usulini qo’llashda o‘qituvchi guruh ishtirokchilarini to‘playdi, ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini bildirishni so‘raydi. Mazkur bosqichda ishtirokchilaridan hech biri boshqa qatnashuvchilarining g‘oyasi, fikrinii muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas. Bildirilgan har qanday g‘oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko‘p fikr va g‘oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g‘oya va fikrlarni to‘ldirish, kengaytirish, qayta o‘zgartirish mumkin. G‘oyalar yozilgan varaqlar devorga osib qo‘yiladi. Berilgan g‘oyalar asosida muammoni hal etishga yordam beradigan yechimni tinglash uchun muhokama o‘tkaziladi.

Bu, xaqiqatdan ham o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g‘oyalari bayon etish chog‘ida boshqalarni ham qizg‘in ishga yo‘llashlari, ilhom bilan ishslashlariga imkon beruvchi va unga birgina g‘oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o‘ziga jalb qiladi.

O‘qituvchi mavzu yoki savolni ajratib, keyin esa o‘quv faoligi 5-10 daqiqa oralig‘ida vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo’llanishi mumkin. Masalan, qandaydir mavzuni yoki muammoni muhokama qilish orqali hal qilish uchun savol qo‘yish.



Dars mobaynida o‘qituvchi mavzuning xarakteri va shakllantirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va fazilatlarga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashgulotni boshlashi kerak. Masalan, keyingi paytlarda keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan munozara yuritishning “breynshtorming” shaklini olib qaraydigan bo‘lsak, bunda bahslashuvchilar ko‘proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar.

Shuni e’tirof etish joizki “breinstorming” (inglizcha “Aqliy hujum”) uslubi amerikalik olim A.Osborn tomonidan 1930 yilda taklif etilgan bo‘lib, unda loyihalarini rejalashtirish va uning natijalarni oldindan bashorat qilish ko‘zda tutilgan edi.

“Breynshtorming” uslubining psixologik mohiyati shundaki, munozaraga kirilganda baxslashuvchilarga miyaga qanday fikr kelsa, uni tanqidsiz, erkin aytish imkoniyati beriladi. Oxirida esa baxslashuvchilar ma’lum ratsional “mag‘z”ni ajratib olishadi.

“Insert”strategiyasi metodi - Ushbu strategiya o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha talabalarning muayyan tushunchalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularda mavzuga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ishni bajarish tartibi:

- ✓ kichik guruqlar tuzilib, ular nomlanadi;
- ✓ har bir guruhdan o‘zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid yozma fikr bildirish so‘raladi;
- ✓ o‘quvchilar fikr va mulohazalarini qog‘ozga yozib borishadi;
- ✓ o‘qituvchi matnning mazmuni ifodalangan taqdimotni namoyish etadi;
- ✓ o‘quvchilar bu matn va o‘zlari bildirgan fikrni qanchalik o‘xshashligi va farqini maxsus belgilari bilan qayd etadilar;
- ✓ har bir kichik guruh a’zolari ushbu topshiriq bo‘yicha ma’lumot berishadi.

Metodni qo'llashda o'quvchilar quyidagi jadvallar bo'yicha faoliyatni tashkil etadilar:

I. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn taqqoslanadi:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilar ma'nosi
Z-	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S-	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?-	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'ilsa

"Shaxsiy fikr" metodi – o'quvchilar tomonidan yangi bilimlar o'zlashtirishda, olgan bilimlarini mustahkamlashda, ongda hosil bo'lган ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va tegishli xulosalar chiqarishda shaxsiy fikr metodi yaxshi natija beradi.

Hozirgi paytda o'quvchilar ko'proq bilimni mustaqil ishlar bajarish jarayonida egallamoqdalar. Mustaqil o'qib o'rgangan materiallarni qayta ifodalash, amalga tatbiq etishda ushbu metoddan foydalanilganda talabalarning ongli va faol o'zlashtirishlari amalga oshadi.

Ilmiy, nazariy, amaliy va muammoli o'quv materiallarini tahlil qilish jarayonida talabalar alohida kichik guruhlarda yoki ikkiga bo'lingan holda o'z yondashuv va munosabatlarini bayon etadi. Boshqalar bu fikrni inkor etadigan nuqtai nazarlarini ilgari suradi. Dalil va isbotlar keltiradi. Qarshi fikr aytganlari o'z tomoniga o'tkazishga harakat qiladi. Ekspert guruhi qaysi g'oyaning ustunligini aniqlash maqsadida so'rov varaqasi to'ldiradi. Qaysi bir guruh qaysi g'oyaning ustunligini aniqlash maqsadida so'rov varaqasi to'ldiradi. Qaysi bir guruh ortiq ovoz olsa, ularning fikri haqiqatga yaqin, deb hisoblanadi. Mikroguruhlarning faolligiga qarab keltirilgan dalil va isbotlarining haqiqatga yaqinligiga mos holda reyting qo'yiladi.

"FSMU" metodi - munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminarlari yakunida o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bunda talabalar o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazish, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga egallagan bilimlarini baholashga, tahlil etishga hamda tinglovchilarda bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

F - fikringizni bayon eting

S - fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

F-fikringizni bayon eting	S- fikringizning bayoniga sabab ko'rsatiig	M-ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring	U-fikringizni umumlashtiring

"Bumerang" texnologiyasi. Mazkur texnologiya bir mashgulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallahsga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga ogzaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashgulot davomida har bir ishtirokchilarning turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashga imkoniyat beradi.

"Bumerang" texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga imkoniyat yaratadi; g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagи quyidagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi;

- jamoa bilan ishslash mahorati;

- muomalalik;
- xushfellik;
- ko‘nikuvchanlik;
- o‘zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
- o‘zini xolis baholash.

Hikoya. Ushbu metoddha o‘quv materiali mazmunini og‘zaki bayon qilish ko‘zda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi bo‘lishi mumkin - hikoya - muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa.

Birinchisining maqsadi – o‘quvchilarni boshqa metodlar bilan, masalan, suhbat orqali yangi o‘quv materialini qabul qilishga tayyorlashdir. Hikoyaning bu turi nisbatan bayonning qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va emotSIONalligi bilan xarakterlanib yangi mavzuga qiziqish, uni faol o‘zlashtirishga ehtiyoj uyg‘otadi. Hikoya davomida darsda o‘quvchi faoliyatining vazifalari to‘g‘risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

Hikoya - bayon davrida o‘qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja, asosiy muhimlarini ajratib, ilyustratsiya va ishontirarli misollarni izchil bayon qilishni amalga oshiradi.

Hikoya - xulosa odatda mashg‘ulotning oxirida keltiriladi. O‘qituvchi unda asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishslash uchun topshiriqlar beradi.

O‘quv lektsiyasi (ma’ruza) ta’limming so‘z bilan ifodalash metodlaridan biri sifatida o‘quv ma’ruzasi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilishini ko‘zda tutib, hikoyadan o‘zining hajmi kattaligi, mantiqiy ko‘rinishi, obraz isbotlash va umumlashtirishining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma’ruza butun dars yoki mashg‘ulotni band etadi, hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma’ruza davomida axborotni og‘zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarining fikrlashini faollashtirish usullari, dalillashtirish, isbotlash-tasniflash, tizimlashtirish, umumlashtirish va x.k. usullardan foydalaniadi.

Ma’ruzalar asosan o‘rta maktablarning yuqori sinflarida, shuningdek, kollej va oliy o‘quv yurtlarida o‘qiladi. Ma’ruza rejasini aniq o‘ylash va ma’lum qilish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg‘unlik bo‘lmog‘i kerak.

Suhbat. Suhbat metodi atroflicha o‘ylangan savollar yordamida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi munozara ko‘zda tutilib, u o‘quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarini o‘zlashtirishga olib keladi. Suhbat metodining qo‘llanishida savollarni qo‘ya olish usullari (asosiy, qo‘srimcha, yo‘llovchi va h.k.) o‘quvchining javob va mulohazalarini muhokama qilish usullari, suhbatdan xulosalarini shakllantirish usullari, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniadi.

Ta’limninig ko‘rgazmali metodlarini shartli ravishda ikki katta guruhgaga bo‘lish mumkin: ilyustratsiya va namoyish qilish metodlari. Illyustrasiya metodi, o‘quvchilarga ilyustratsiya qo‘llanmalar-plakat, xarita, doskadagi rasm, olimlarning fotosuratlari va boshqalarni ko‘rsatishni ko‘zda tutiladi. Namoyish qilish metodi odatda asboblar, tajribalar, texnik qo‘rilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish metodiga shuningdek, kinofilm va diafilmlar ko‘rsatishni ham kiritish mumkin. Ko‘rgazmali vositalarning illyustrativ va namoyish qilish bo‘linmalari o‘qitish amaliyotida tarixiy shakllangan.

Ta’limning amaliy metodlari o‘quv faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini qamrab oladi: amaliy melodlaridan foydalishda quyidagi usullar qo‘llaniladi: vazifani qo‘yish, uni bajarilishni rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, jadval, rag‘batlantirish, tartibga solish va nazorat qilish amaliy ish natijasini tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to‘liq erishish uchun ta’limga tuzatishlar kiritib borish.

Ta’limning muammoli - qidiruv metodlari amalda ta’limning so‘z orqali ifodalash, ko‘rgazmali va amaliyot metodlari yordamida qo‘llaniladi. Shu bilan birligida o‘quv materialini mukammal bayon qilish metodlari, muammoli va evrestik suhbatlar, muammoli qidirish tipidagi ko‘rgazmali metodlarni qo‘llash, muammoli qidiruv amaliy ishlarni o‘tkazish yoki hatto tadqiqot tipidagi ishlar to‘g‘risida gapirish mumkin. O‘quv materialini muammoli va muammoli tuzilgan ma’ruza metodlari orqali bayon qilish o‘qituvchining bayon davomida mulohaza yuritish, isbotlashi, umumlashtirishni, dalillarni tahlil qilish va tinglovchi fikrini o‘z ortidan ergashtirish, uni faolroq va ijodiyroq qilishni ko‘zda tutadi.

Muammoli ta’lim metodlaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbat hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga qator izchil va o‘zaro bog‘langan savollarni qo‘yadi. O‘quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarini aytadilar. Aytganlarining to‘g‘ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Bu bilan birga yangi bilimni o‘zlashtirishda, mustaqil ravishda o‘zlarining oldinga siljishini amalgalashadi.

Ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi – o‘qituvchining va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. Bu jarayon o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi, doimo dinamik tarzda o‘zgarib boradi. Ta’lim davomida ta’lim olayotganlarning shaxsiy hislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Musiqa darsida o‘qituvchi o‘quvchilarini musiqani idrok etish jarayonida, bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi uslublarni qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida vositachi hamdir. Chunki, aynan bir metod bilan o‘qituvchi o‘rgatadi, o‘quvchilar o‘rganadi. Musiqaning o‘qitish metodlari deganda, maktab o‘quvchilarining bilim, mahorat va malakalarni egallahsha, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o‘qituvchilarining qo‘llagan ish usullari tushuntiriladi. Bu metodlar, bir necha turga bo‘linadi:

1. Musiqa o‘qitishning og‘zaki metodlari: a) hikoya, b) suhbat, v) tushuntirish
2. Ko‘rgazmali o‘qitish metodlari: bunda nota yozuvlari, plakatlar, dirijyorlik harakatlari, raqs, musiqani jonli va aniq ijob etilishi hamda ritmik sur’ati ko‘rsatiladi.
3. Amaliy metodlar: amaliy metodlar vositasida vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositarini tahlili, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalish harakatlarini bajarishlar, qo‘sish kuylash jarayonida ifoda etiladi.
4. O‘yin metodi: o‘yin metodi asosan boshlang‘ich sinflarda qo‘llaniladi. O‘yin metodi o‘quvchilarini musiqiy qobiliyatini, nutqini, xotirasini, qiziqishini psixologik-fiziologik xususiyatlarini rivojlantiradi.
5. Taqqoslash metodi: bu metod vokal-xor ishlari, musiqa asarlarining tahlil va janrlarni belgilash (qo‘sish, raqs, marsh) musiqa tinglash jarayonida qo‘llaniladi.
6. Musiqiy o‘quvi bo‘sh bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash metodi: bu metod dars jarayonida differentsional guruhlarga bo‘lib, darsdan tashqari vaqt ajratib, yakka tarzda ish olib boriladi. Darsdan tashqari jarayonda alohida qo‘sishlar o‘rganilib, topshiriqlar beriladi.

“Sinkveyn” metodi - Sinkveyn – fransuzcha -“cinquains”, inlizcha - “cinquain” so‘zlaridan olingan bo‘lib “5 qator” ma’nosini bildiradi. Sinkveyn - ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she‘r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalananadi.

Sinkveyn tuzish - murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Quyida biz “Notalar” mavzusi misolida musiqa nazariyasi darsida “Sinkveyn” texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha o‘z tavsiyalarimizni bayon qilmoqchimiz (har bir o‘qituvchi o‘tayotgan yoki o‘tgan mavzusi asosida o‘yin shaklidan foydalanib, o‘yin mazmunini ishlab chiqishi mumkin).

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1 – bosqichda:

- o‘qituvchi ushbu dars bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida o‘quvchilarga tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, o‘quvchilar esa shu vaqtadan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi.

2 – bosqichda:

- o‘qituvchi barcha o‘quvchilarga quyidagi shaklda alohida–alohida tarqatma materiali beradi:
“Notalar ketma-ketligini tartiblang”

Guruh Bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
					Re
					Sol
					Do
					Lya
					Fa
					Si
					Mi

3 – bosqichda:

- o‘quvchilardan ushbu materialni sinchiklab o‘rganib chiqishlarini so‘raydi;

- o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan ma’lum bir sondagi (misol uchun 7 ta) harakatning ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash kerakligi, belgini esa qog‘ozdagи alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi.

4 – bosqichda:

- o‘qituvchi qo‘yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini, ya’ni har bir o‘quvchi o‘z tarqatma materialidagi “Yakka baho” ustunini to‘ldirishi lozimligini aytadi.

5 – bosqichda:

- o‘qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir o‘quvchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiyngalganlarga yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;

- har bir o‘quvchi o‘z tarqatma materialidagi “Yakka baho” ustuniga shu yerda berilgan harakatlardan o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya’ni berilgan 7 harakatdan uning fikricha qaysi biri birinchi bo‘lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo‘lishini va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga 3 daqiqa vaqt beradi.

6 – bosqichda:

- o‘qituvchi o‘quvchilardan 3 kishidan iborat kichik guruqlar tashkil etishlarini so‘raydi (3 kishilik guruqlar o‘quvchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin);

